

Jamoatchilik kengashi axboroti

I. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatining 2023-yil IV chorak yakuni bo'yicha tahlili;

II. "2023-yil uchun Statistika dasturi" doirasida 2023- yil IV chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida;

III. Xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi hamda Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar;

IV. Aholini ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar;

V. Statistika agentligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili;

VI. Ijro intizomi bo'yicha IV chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar.

Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o'rinlarda Jamoatchilik kengashi) raisi Y.A. Abdullayev kun tartibidagi masalalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

I. Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Y. Abdullayevning 2023-yil IV choragi yakuni bo'yicha kengash faoliyatiga doir hisoboti.

Jamoatchilik kengashi raisi Y.A. Abdullayev 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni sifatli va o'z muddatida ijrosini ta'minlash borasida 2023-yilning IV choragida amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Xususan, u O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida belgilangan vazifalar va mazkur Farmon bilan Jamoatchilik kengashi nizomiga kiritilgan asosiy o'zgarishlar borasida to'xtalib o'tdi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida statistika tizimi faoliyatiga oid hisobotlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno) rasmiy qo'mita rasmiy veb-saytida muntazam ravishda e'lon qilib borilmoqda.

Shuningdek, Jamoatchilik kengashi tomonidan turli yo'nalishlar bo'yicha tadbirlar tashkil etilib, mavjud kamchiliklar muhokama qilinib, muammolar o'z vaqtida bartaraf etilishi bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilyapti.

Xususan, quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga va o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, har chorakda yangilanib borilmoqda:

- amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar;

- mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar mustasno);

- o'zlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlariga oid ma'lumotlar.

2023-yil IV choragida Statistika agentligi faoliyati hamda sohaga doir qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosi va tahliliga qaratilgan matbuot anjumani, turli uchrashuv va konferensiyalar tashkil etildi. Ularda keng jamoatchilik vakillari va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga atroflicha javob olishdi.

Joriy yilning 3-4-oktabr kunlarini Saudiya Arabistoni Qirolligining Jidda shahrida Islom hamkorlik tashkiloti Statistika qo'mitasining 12-sessiyasi [bo'lib o'tdi](#). Sessiyasining kun tartibiga ko'ra, statistik salohiyatni rivojlantirish, butunjahon aholi va uy-joyini ro'yxatga olish 2020-yil raundi, aholini ro'yxatga olish faoliyatini qo'llab-quvvatlashda geofazoviy texnologiyalardan foydalanish va rasmiy statistikada elektron ta'lim dasturlarini yaxshilash kabi masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, tadbir davomida Barqaror rivojlanish maqsadlarini monitoring qilish hamda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning bu boradagi ilg'or tajribalari ham o'rganildi. **Ma'lumot uchun:** Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Birlashgan Millatlar Tashkilotidan keyingi yirik hukumatlararo tashkilot bo'lib, tarkibiga 57 a'zo davlatlar kiradi va to'rt qit'ani qamrab oladi.

Joriy yilning 9-10-oktabr kunlari Belgiyaning Bryussel shahrida BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi, Eurostat, Yevropa Markaziy banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi hamkorligida moliyaviy hisoblar bo'yicha seminar [tashkil etildi](#). Seminarning asosiy maqsadi ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida tajriba almashish, moliyaviy hisoblar bo'yicha ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mazkur hisoblarni

shakllantirishda kerak bo'ladigan ma'lumotlar manbalarini takomillashtirish usullarini o'rganishdan iborat.

2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi doirasida milliy statistika tizimiga sifatni boshqarishning ilg'or tizimlarini joriy etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqib, joriy yilning 17-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bosh mutaxassislari uchun “Faoliyatga sifatni boshqarishning ilg'or tizimlarini joriy etish” mavzusida [seminar tashkil etildi](#). Seminarda Agentlik tomonidan Generic Statistical Information Model (GSIM) - Statistika ma'lumotlarni taqdim etishning universal modelini joriy etish yuzasidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hujjatlar taqdimoti tashkil etildi.

21-oktabr – yurtimizda O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan, 18-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida ham madaniy-ma'rifiy [tadbir tashkil etildi](#). Mazkur madaniy-ma'rifiy uchrashuvga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ko'magida O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a'zosi, “Do'stlik” ordeni sohibi, 20 dan ziyod kitoblar muallifi, yozuvchi va shoir Chorsham Ro'ziyev taklif etildi. Tadbirda mehmon ishtirokchilarni O'zbek tili bayrami kuni bilan samimiy tabriklab, o'zbek tilining boy tarixi, xususan, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi buyuk bobokalonlarimizning ona tilimiz rivojiga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z yuritdi. Shuningdek, o'zbek tiliga o'tmishda bo'lgan to'siqlar hamda bugungi kunda berilayotgan yuksak e'tibor xususida batafsil to'xtalib o'tildi. O'z ijod namunalaridan soha xodimlariga o'qib eshittirdi.

Joriy yilning 19-oktabr kuni Toshkent moliya institutida “INNO-WEEK-2023” xalqaro innovasion g'oyalar haftaligi doirasida “Statistika va ekonometrika” kafedrasini tomonidan “Statistika tizimini rivojlantirishning milliy strategiyasi: nazariya va amaliyot” mavzusida xalqaro [ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi](#). Ushbu konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Janubiy Koreyaning Yonsei universiteti, Fransiyaning Pierre Mendes universiteti hamda G.V. Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali vakillari hamda qator xalqaro va mahalliy mutaxassislar ishtirok etishdi. Mazkur konferensiya davomida statistika tizimini rivojlantirishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyatini milliy hisoblar tizimining xalqaro andozalari asosida

takomillashtirish borasida fikr-mulohazalar bildirildi. Tadbirda mutaxassislar tomonidan statistik ko'rsatkichlar va so'rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholashni takomillashtirish borasida ma'lumotlar berildi.

Shu yilning 19–21-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)ning O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi tomonidan "Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasi dasturi" bo'yicha ikkinchi milliy muvofiqlashtiruv mexanizmi [yig'ilishi tashkil qilindi](#). Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkiloti, Markaziy bank, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirok etishdi. Shuningdek, ishtirokchilar havfsiz va tartibli migratsiya tizimini joriy etish, mehnat migrantlari to'g'risida to'liq ma'lumot yuritish, yagona baza tashkil etish, migrantlarni kasb-hunarga o'qitish hamda moliyaviy savodxonligini oshirish masalalarida fikr almashishdi.

Prezidentimiz tomonidan joriy yil 11-sentabrda imzolangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamini kengaytirish barobarida yangidan-yangi tashabbuslarga zamin yaratmoqda. 2023-yilning 23-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan [tadbir tashkil etildi](#). Tadbirga "Taraqqiyot startegiyasi" markazi bo'lim boshlig'i Xolbekov Avazbek Mehmonovich taklif etildi. Shundan so'ng, "Taraqqiyot startegiyasi" markazi bo'lim boshlig'i Avazbek Xolbekov "O'zbekiston – 2030" strategiyasining mazmun-mohiyati haqida tayyorlagan prezentatsiya namoyish qildi. Prezentatsiya davomida "O'zbekiston – 2030" strategiyasi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, odil sudlovga erishish, iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lgan tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, ijtimoiy sohada islohotlarni "inson manfaati eng ulug' maqsad" tamoyili asosida amalga oshirish kabi masalalar haqidagi keng tushunchalar berildi.

Buxoro viloyati statistika boshqarmasida viloyatdagi mahalliy va davlat hokimiyati organlari iqtisodchi xodimlari uchun "Statistika asoslari" bo'yicha [o'quv kursi tashkil etildi](#). Ta'kidlash lozimki, Prezidentimizning 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga ko'ra, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda iqtisodiyot tarmoqlari

xodimlarining bilim va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida "Statistika asoslari" bo'yicha turli o'quv-kurslari tashkil etish vazifasi belgilangan edi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan doimiy tarzda davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari iqtisodchi xodimlari uchun "Statistika asoslari" o'quv kursi tashkil etilmoqda. Ushbu uchrashuvda Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti katta o'qituvchisi Sh. Djumaniyazov tomonidan makroiqtisodiy statistik ko'rsatkichlar tahlili, milliy statistikaning xalqaro statistikaga integratsiyasini amalga oshirish, statistik ma'lumotlarni shakllantirish va ularni amaliyotda qo'llash borasida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, Samarqand shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlarning inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul idoralar rahbarlarining II [yig'ilishi tashkil etildi](#). Tadbirda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar — O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasining inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul bo'lgan idora rahbarlari, O'zbekistondagi vazirlik, idoralar, hokimliklarning kadrlar bilan ishlash bo'linmalar boshliqlari hamda xorijiy va mahalliy OAV vakillari ishtirok etdi. Yig'ilish davomida kadrlar siyosati va davlat xizmatidagi zamonaviy trendlar, yangi g'oyalar va yondashuvlar muhokama qilindi. Shuningdek, rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish va ular bilan samarali ishlash bo'yicha ilg'or tajribalar taqdimoti namoyish etildi.

Joriy yilning 23–27-oktabr kunlari Rossiyaning Moskva shahrida Milliy tadqiqot universitetining Iqtisodiyot oliy maktabi tomonidan BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (YuNFPA) ko'magida MDH davlatlarining davlat xizmatchilari va olimlari uchun "Aholi va rivojlanish" malaka oshirish dasturi doirasida [seminar o'tkazildi](#). Tadbirda MDHning 7 ta – O'zbekiston, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'iz Respublikasi vakillari ishtirok etdi. Ishtirokchilarga malaka oshirish dasturi doirasida Milliy tadqiqot universiteti "Iqtisodiyot oliy maktabi" va Moskva davlat universitetining yetakchi olim va mutaxassisleri dars berishdi. Tadbir davomida demografik o'tish, barqaror rivojlanish maqsadlari, o'lim va aholi salomatligi muammolari, tug'ilish va oila shakllanishi tendentsiyalari, migratsiya va rivojlanish, demografik o'zgarishlar va mehnat bozori, demografik qarish va faol uzoq umr ko'rish, gender tengsizligi va rivojlanish kabi mavzularda ma'ruzalar o'qilib, taqdimotlar qilindi.

2023-yilning 24–26-oktabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi turli hukumatlar, statistika idoralari, xalqaro tashkilotlar ekspertlari ishtirokida ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni o‘lchash bo‘yicha yuqori darajadagi [mintaqaviy seminar bo‘lib o‘tdi](#). Seminar davomida ishtirokchilar ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni o‘lchashning turli milliy yondashuvlari bo‘yicha tajriba almashdilar. Shuningdek, tadbirda xalqaro miqyosida tajriba almashish va hamkorni yanada mustahkamlash bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Joriy yilning 23-27-oktabr kunlari Qozog‘istonning Olmaota shahrida Xalqaro valyuta jamg‘armasining Kavkaz, Markaziy Osiyo va Mo‘g‘uliston davlatlari uchun salohiyatni rivojlantirish mintaqaviy markazi tomonidan “Resurslar va ishlatilish jadvallari” mavzusida [mintaqaviy seminar tashkil etildi](#). Seminarning asosiy maqsadi resurslar va ishlatilish jadvallari ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha mamlakatlarning o‘ziga xos tajribalarini o‘rganish hamda ishtirokchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo‘ldi.

Shu yilning 1-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida 2023-yil III chorak yakunlari bo‘yicha agentlikning kengaytirilgan [Hay‘at yig‘ilishi](#) o‘tkazildi. Unda Statistika agentligi rahbariyati, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti vakillari, tarmoq va hududiy statistika boshqarmalari boshliqlari hamda masofaviy videoaloqa orqali hududiy statistika boshqarmalari xodimlari qatnashdi.

Joriy yilning 1-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 22-sentabrdagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 492-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida tadbir tashkil etildi.

Statistika agentligining Inson resurslarini boshqarish boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan tadbirda “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarishga oid ma‘lumotlar va hujjatlarni [“hrm.argos.uz” elektron platformasida shakllantirish](#) va yuritish tartibi haqida ma‘lumotlar berildi. Shuningdek, “hrm.argos.uz” elektron platformasini respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida joriy etish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”da belgilangan masalalar yuzasidan fikr-mulohaza bildirildi.

Mamlakatimizda aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlarini shuningdek, barcha fuqarolarni sportning ommaviy turlariga jalb etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va [ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash](#)

tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4954-sonli qarori qabul qilingan. Qarorda nazarda tutilgan vazifalar ijrosini taminlash yuzasidan barcha tashkilotlar ishchi-xodimlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng tadbiq qilishga qaratilgan turli sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

2023-yilning 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida "O'zbekistonda statistika tizimini mustahkamlash" loyihasi doirasida [Jahon banki vakillari](#) bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Missiyaning maqsadi "O'zbekistonda statistika tizimini mustahkamlash" loyihasini amalga oshirishdagi keyingi qadamlarni, harakat rejasini, shuningdek, loyiha doirasida ma'lumotlar bo'yicha so'rovlarni muhokama qilishdan iborat. Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ- 4796-sonli qaroriga muvofiq, Jahon banki ekspertlari ko'magida ishlab chiqilgan "2020—2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi" tasdiqlangan edi. Yig'ilishda ishchi guruh a'zolari loyihaning borishi, joriy vazifalari va kelgusidagi tadbirlar rejasini bilan tanishtirildi. Loyihaning tarkibiy qismlari, xususan, institutsional islohotlar va salohiyatni rivojlantirish, ma'lumotlarni tayyorlash, texnik imkoniyatlarni takomillashtirish, shuningdek, loyihani boshqarish masalalari ko'rib chiqildi.

Joriy yilning 7-noyabr kuni [Oliy Majlis Senatida Jahon banki vakillari](#) bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Ma'lumot o'rnida ta'kidlash lozim, o'tgan yili ushbu nufuzli xalqaro moliya tashkiloti direktorlar kengashi mamlakatimiz bilan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini tasdiqlagan edi. Bugungi kunda Jahon banki tomonidan mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashish, tadbirkorlik loyihalarini rivojlantirish va moliyalashtirish strategiyasini ishlab chiqish, qishloq infratuzilmasi va o'rta shaharlarni modernizatsiya qilish, xotin-qizlar bandligi va yoshlarning kasbiy ta'limi, sog'liqni saqlash strategiyasini amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida 8-noyabr kuni BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi ([ESKATO](#)) [ekspertlar missiyasi bilan uchrashuv](#) o'tkazildi. Ta'kidlash joizki, ushbu uchrashuv "Osiyo-Tinch okeani mintaqasi milliy statistika idoralarining yangi, innovatsion va keng ko'lamdagi ma'lumotlar manbalaridan foydalanish salohiyatini mustahkamlash" loyihasi doirasida tashkil etildi. Shuningdek, tadbir davomida loyiha doirasida mavjud statistik ma'lumotlar manbalarini takomillashtirish, narxlar statistikasi, ma'lumotlar infratuzilmasini yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish jarayonlari haqida ma'lumotlar berildi.

2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi doirasida milliy statistika tizimiga sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini joriy etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shundan kelib chiqib, joriy yil 9-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi etakchi mutaxassislari uchun “Faoliyatga sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini joriy etish” mavzusida [seminar tashkil](#) etildi. Seminarda Agentlik tomonidan Generic Statistical Information Model (GSIM) - Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modelini joriy etish yuzasidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hujjatlar taqdimoti tashkil etildi.

2023-yilning 10-noyabr kuni Statistika agentligida xodimlarning konstitutsiyaviy huquqlari va korrupsiyaning oldini olish yuzasidan [davra suhbat](#) tashkil etildi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni mazmun-mohiyatini va bu borada xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish masalasida ham fikr-mulohaza almashildi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi fuqarolarning huquqlarini yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha ma’lumot berib o‘tildi.

Joriy yilning 14–noyabr kuni [Koreya Statistika boshqarmasi](#) delegatsiyasi statistika sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, o‘zaro tajriba almashish maqsadida amaliy tashrif bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga tashrif buyurdi. Uchrashuvda ishtirokchilari ikki davlat statistika idoralari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish masalasida o‘zaro fikr-mulohaza almashdilar. Ishtirokchilar inson resurslarini rivojlantirish, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, ma’muriy ma’lumotlar bilan ishlash, ma’lumotlarni yig‘ish tizimlari, axborot tizimlari va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishni muhokama qildilar.

Joriy yilning 14-noyabr kuni poytaxtimizdagi Frankfort mehmonxonasida Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot (MXT)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan “Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot va insonlar mobilligi ma’lumotlari bilan ishlash vositalar to‘plami dasturi” mavzusida [davra suhbat](#) o‘tkazildi. Ushbu davra suhbatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda yurtimiz va xorijiy davlatlarning migratsiya sohasida faoliyat yuritayotgan ekspertlari ishtirok etishdi. Shuningdek, MXTning Global ma’lumotlar instituti katta mintaqaviy loyiha menejeri Vivian Van Der Vorst hamda MXTning O‘zbekistondagi Loyiha koordinatori Jasur

Saidov migratsiyaga oid statistik ma'lumotlar bilan ishlash, mavjud amaliyot va istiqboldagi rejalar haqida so'z yuritdi.

[Xotin-qizlar](#) boshlang'ich tashkiloti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha Samarqand va Sirdaryo viloyatlari statistika boshqarmalarida Xotin-qizlar boshlang'ich tashkilotining faoliyati va uning ayollar hayotidagi o'rni yuzasidan [tadbirlar tashkil etildi](#). Tadbirdan ko'zlangan maqsad – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-87-son Farmoni 21-bandida belgilangan vazifasining ijrosini ta'minlash. Xususan, xotin-qizlarni onkologik skriningdan o'tkazishni ta'minlash, ayollarni o'z yashash hududlarida onkoskrining tekshiruvidan o'tkazilishini Xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti tomonidan nazoratga olish kabi farmonda belgilangan masalalar haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

2023-yil 14-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi vakillari va Qozog'iston Respublikasi Milliy statistika byurosi xodimlari o'rtasida statistik registrlarni yuritish bo'yicha tajriba almashish maqsadida [onlayn uchrashuv tashkil](#) etildi. O'z navbatida, Statistika agentligi vakillari Qozog'iston Respublikasi Milliy statistika byurosidadagi hamkasblariga statistik registrlarni yuritish tizimi bo'yicha yurtimiz amaliyotini namoyish etdilar. Ushbu uchrashuvda statistik registrlarni yuritish tizimi bilan bog'liq masalalar bo'yicha har ikki tomon vakillarini qiziqtirgan masalalar muhokama qilindi.

Joriy yilning 15-noyabr kuni Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Begalov Bahodir Abdusalomovich talabalarga “Mamlakatimizda olib borilayotgan raqamlashtirish jarayonlari” mavzusida [ochiq dars o'tib berdi](#). Ochiq dars avvalida, Bahodir Begalov milliy statistika sohasida olib borilayotgan ochiqlik siyosati, statistika axborotlarining haqqoniyligi va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tdi. Ochiq dars davomida statistika faoliyatiga raqamli texnologiyalarni samarali va optimal joriy qilishning ilmiy asoslari, e-Stat 4.0 avtomatlashtirilgan axborot tizimining imkoniyatlari, tanlanma statistik kuzatuvlariga raqamli texnologiyalarni joriy etilishi, aholini ro'yxatga olish jarayonlarini avtomatlashtirish, “Statistika” integrallashgan axborot tizimi hamda O'zbekistonning ochiq ma'lumotlar sohasida erishgan yutuqlari borasida ham ma'lumot berildi.

Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida “Inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilishning xalqaro

standartlari: amaliyot va hisobot” mavzuda [o‘quv kursi bo‘lib o‘tdi](#). To‘rt kunlik mashg‘ulotlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 75 yilligiga bag‘ishlangan. Ushbu muhim tadbir O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan Inson huquqlari sohasidagi milliy ta‘lim dasturi asosida o‘tkazilgan. Bundan maqsad BMTning Inson huquqlari sohasida ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi hamda BMT Jahon ta‘lim dasturining to‘rtinchi bosqichida belgilangan vazifalarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirishdir. Mashg‘ulotlar BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari Folker Tyurkning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 75 yilligiga bag‘ishlangan videomurojaati bilan boshlandi.

[Koreya Statistika boshqarmasi delegatsiyasi](#) o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va statistika sohasida tajriba almashish maqsadida amaliy tashrif bilan Statistika agentligida bo‘lishdi. Navbatdagi uchrashuvda tomonlar Koreya Respublikasining “Taraqqiyotga rasmiy yordam” granti doirasida moliyalashtiriladigan “Statistika sohasida kadrlar salohiyatini oshirish” loyihasini muhokama qilishdi. Loyiha 2025–2028- yillarda Koreya tomonining grant mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida [ochiq muloqot o‘tkazildi](#). 2023-yil 16-noyabr kuni “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan ochiq muloqot tashkil etildi. Ochiq muloqotda yurtimizning qishloq xo‘jaligi va ekologiya sohasidagi statistik raqamlari haqida ma‘lumotlar berildi.

Joriy yilning 16-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida direktor o‘rinbosari hamda onlayn e‘lonlarni joylashtirish bo‘yicha eng ommabop elektron maydonlardan biri bo‘lgan [“OLX CLASSIFIEDS” MCHJ](#) (Olx – savdo belgisi) rahbari tomonidan o‘zaro hamkorlik Memorandumini [imzolash marosimi](#) bo‘lib o‘tdi. Ta‘kidlash joizki, imzolangan Memorandum doirasida tomonlar o‘rtasida o‘zaro axborot almashuvini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

Joriy yilning 21-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida Jahon banki missiyasi bilan “Barqaror hududiy rivojlanishda keng ko‘lamli milliy ma‘lumotlar infratuzilmasi” loyihasi doirasida [uchrashuv o‘tkazildi](#). Uchrashuvda Statistika agentligi markaziy apparati xodimlari hamda Jahon banki missiyasi vakillari – Saymon Uillis va Aleksandr Samborskiy ishtirok etishdi. Tadbir davomida “Barqaror hududiy rivojlanishda

keng ko'lamli milliy ma'lumotlar infratuzilmasi" loyihasi doirasida kelgusida amalaga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar xususida fikr-mulohaza almashildi.

Tedjon shahrida Osiyo va Tinch okeani mintaqasida Xalqaro mehnat migratsiyasi statistikasi bo'yicha [seminar o'tkazildi](#). 2023-yilning 14–16- noyabr kunlari Janubiy Koreyaning Tedjon shahridagi Statistika kadrlar tayyorlash institutida Xalqaro mehnat tashkiloti hamda Koreya statistika idorasi tomonidan Osiyo va Tinch okeani mintaqasida Xalqaro mehnat migratsiyasi statistikasi bo'yicha 9-seminar tashkil etildi. Ushbu seminarda O'zbekiston, Armaniston, Bangladesh, Gruziya, Hindiston, Janubiy Koreya, Mongoliya, Nepal, Ozarbayjon, Samoa, Turkiya, Tojikiston, Fidji, Shri-Lanka milliy statistika idoralari mutaxassislar, Xalqaro mehnat tashkilotini ekspertlari hamda Koreya statistika idorasi rahbariyati ishtirok etishdi. adbirda ishtirokchilarga xalqaro mehnat migratsiyasi statistikasidagi so'nggi o'zgarishlar haqida ma'lumotlar berildi.

"HAVAS" bilan o'zaro hamkorlik [Memorandumi imzolandi](#). Joriy yilning 22-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda respublikada eng yirik savdo tarmoqlaridan biri bo'lgan "HAVAS FOOD" MCHJ o'rtasida o'zaro hamkorlik Memorandumining imzolanganini mazkur ishlarning amaliy natijalaridan biri hisoblanadi. Imzolangan Memorandum doirasida tomonlar o'rtasida o'zaro manfaatli axborot almashuvi yo'lga qo'yiladi.

"Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data)ni rasmiy statistikada qo'llash" bo'yicha to'rtinchi [xalqaro seminar o'tkazildi](#). Joriy yilning 15-17-noyabr kunlari Xitoy Xalq Respublikasining Xanchjou shahrida "Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data)ni rasmiy statistikada qo'llash" bo'yicha to'rtinchi xalqaro seminar o'tkazildi. Seminarining asosiy maqsadi statistika tizimida katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlashda sun'iy yo'ldosh va geoaxborot tizimlari ma'lumotlari bilan ishlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi statistikasini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash hamda statistik ma'lumotlardan keng foydalanish usullari bo'yicha o'z tajribalari bilan almashishdan iborat bo'ldi.

"Statistikani rivojlantirish bo'yicha milliy strategiya: ustuvor vazifalar, ularning bajarilishi va istiqbollari" mavzusida [xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi](#). 2023-yilning 24-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti "Statistikani rivojlantirish bo'yicha milliy strategiya: ustuvor

vazifalar, ularning bajarilishi va istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqsadi – statistika sohasining ham nazariy, ham metodologik va amaliyotiga oid muammolarini aniqlash va ularning yechimi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Statistika agentligi tomonidan [“Yashil makon” loyihasi](#) doirasida daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. Shu kunlarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mamlakatimiz bo‘ylab ko‘chat o‘tqazish tadbirlari keng tashkil etilmoqda. Shu sabab mazkur loyiha shahar va qishloqlarimizni yashil maydonga aylantirish, go‘zal bog‘-rog‘lar yaratish imkonini bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan ham “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amaliy ishlar izchil tashkil qilinmoqda. Xususan, Statistika agentligi rahbariyati boshchiligidagi jamoa hamda Toshkent shahar statistika boshqarmasi xodimlari Yangi hayot tumanidagi “Yangi turmush” mahallalasida 300 dan ortiq mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini ekishdi.

2023-yil 30-noyabr kuni Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan [ochiq muloqot tashkil etildi](#). Unda agentlik xodimlari, universitet o‘qituvchilari va talabalari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi. Ochiq muloqotda O‘zbekiston Respublikasining demografik ko‘rsatkichlari haqida batafsil ma‘lumotlar berildi. Tadbirda demografiya statistikasiga oid ma‘lumotlar [stat.uz](#), [gender.stat.uz](#), [siat.stat.uz](#), [aholi.stat.uz](#), [nsdg.stat.uz](#), [data.egov.uz](#) kabi internet manbalarida e‘lon qilib kelinayotgani qayd etildi.

2023-yilning 28–30-noyabr kunlari Tailandning [Bangkok shahrida](#) Osiyo va Tinch okeani mintaqasi uchun BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy komissiyasi (ESKATO) hamda BMTning Statistika departamenti tomonidan statistik va keng ko‘lamdagi ma‘lumotlarning integratsiyasiga bag‘ishlangan [seminar o‘tkazildi](#). Mazkur xalqaro seminarda ESKATOga a‘zo davlatlarning milliy statistika idoralari rahbarlari, BMTning Statistika departamenti vakillari hamda boshqa xorijlik ekspertlar ishtirok etdi. Shuningdek, statistik ma‘lumotlarni boshqarish ehtiyojlari, texnik tadbirlar va uslubiy imkoniyatlar, yangi AKTni milliy statistika tizimiga joriy etish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Poytaxtimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik bo‘yicha [ikkinchi global forum o‘tkazildi](#). Joriy yilning 30-noyabr kuni poytaxtimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda

parlamentlararo hamkorlik bo'yicha ikkinchi global forum tashkil etildi. Forum davomida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo hamkorlik aloqalarini kengaytirish, milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qonunchilikni takomillashtirish, parlament nazorati mexanizmlarini kuchaytirish masalalari muhokama qilindi.

Joriy yilning 29-noyabr – 1-dekabr kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi "Layner" majmuasida Orolbo'yi mintaqasini barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan dastur va loyihalar amalga oshirilish doirasida "Resurslarni safarbar qilish va loyiha takliflarni ishlab chiqish" mavzusida uch [kunlik trening o'tkazildi](#). Ushbu tadbir Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-yanvardagi "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 41-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etildi.

2023-yil 30-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida aholini ro'yxatga olishda migratsiya masalalari bo'yicha [vebinar tashkil etildi](#). Ushbu tadbir Rossiya Federal davlat statistika xizmati va MDH Statistika qo'mitasi tomonidan tashkil etildi. Vebinar davomida ishtirokchilar aholini ro'yxatga olish bo'yicha amalga oshirayotgan ish tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

Joriy yilning 30-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida agentlik vakillar va [Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti \(JSST\) xalqaro ekspertlar](#) guruhi bilan "Sog'lom va faol uzoq umr ko'rish bo'yicha milliy strategiya va harakatlar rejasini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash" maqsadida [uchrashuv bo'lib o'tdi](#). Mazkur uchrashuvda sog'liqni saqlash va qarishning hozirgi holatini ko'rib chiqish, sog'lom qarishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar va zarur harakatlarni ishlab chiqish, shuningdek, mamlakatda sog'lom va faol uzoq umr ko'rish bo'yicha Milliy strategiya va harakatlar rejasini ishlab chiqishga ko'maklashish masalalari muhokama qilindi.

BMT–Ayollar tashkiloti bilan gender statistikasini baholash bo'yicha [vebinar o'tkazildi](#). 2023-yil 30-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi vakillari gender statistikasini baholash bo'yicha tashkil etilgan vebinarida ishtirok etdi. Ushbu tadbir Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va Ayollar huquqlarini kengaytirish bo'yicha

tashkilot (BMT–Ayollar) tashabbusi bilan o‘tkazildi. Vebinar davomida mavjud statistik ma’lumotlarning gender kontekstida tahlili o‘tkazildi.

Hududiy statistika boshqarmalari yosh mutaxassislar uchun [madaniy-ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazildi](#). Joriy yilning 30-noyabr – 1-dekabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida hududiy statistika boshqarmalari yosh mutaxassislar uchun madaniy-ma’rifiy uchrashuvlar tashkil etildi. asrlab ishtirokchilar, Statistika agentligida tashkil etilgan muzeyga ekskursiya qilishdi. Shuningdek, yosh xodimlar Statistika agentligi boshqarmalari faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Shundan so‘ng, yosh mutaxassislar o‘rtasida “StatQuiz” intellektual o‘yini tashkil etildi.

Joriy yilning 1-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida [“Konstitutsiya haftaligi”](#) doirasida yangilangan konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan [targ‘ibot tadbiri tashkil etildi](#). Mazkur tadbirda dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag‘ishlangan bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish to‘g‘risida”gi F-72-son farmoyishi ijrosini haqida batafsil tushunchalar berildi.

Qozog‘iston Respublikasi Milliy statistika byurosi xodimlari bilan [onlayn uchrashuv](#) o‘tkazildi. Joriy yilning 4-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi vakillari hamda Qozog‘iston Respublikasi Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi huzuridagi Milliy statistika byurosi vakillari o‘rtasida mehnat statistikasi bo‘yicha onlayn uchrashuv o‘tkazildi. Mazkur uchrashuvda mehnat statistikasi ma’lumotlarini yig‘ish va hisobga olish amaliyoti, xususan, mehnat statistikasi kuzatuvlarini metodologiyasi, ma’lumotlar manbalari hamda kuzatuvni tashkil etish jarayonlari bo‘yicha o‘zaro tajriba almashildi.

2023-yilning 27–29-noyabr kunlari [Shveytsariyaning Jeneva shahrida](#) Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag‘allik va daromadlar tengsizligini baholash bo‘yicha ekspertlar yig‘ilishi hamda kambag‘allik statistikasini uyg‘unlashtirish bo‘yicha seminar o‘tkazildi. Tadbirning asosiy maqsadi, Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag‘allik va tengsizlikni o‘lchash hamda kambag‘allik statistikasini uyg‘unlashtirish bo‘yicha tajriba almashishdan iborat bo‘ldi.

Yurtimizda aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishni kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor

yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5282-sonli qaror ijrosini ta'minlash maqsadida barcha ishchi-xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng tatbiq qilish maqsadida turli [sport musobaqalari tashkil etilmoqda](#). Joriy yilning 1-5 dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida markaziy apparat xodimlari hamda ularning farzandlari o'rtasida "Sport festivali" tashkil etildi. Mazkur "Sport festivali"da yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va workout sport turlari bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tdi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida o'quv- amaliy seminar o'tkazildi. 2023-yilning 4-dekabr kuni [Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida](#) O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini statistik baholash bo'yicha o'quv amaliy seminar bo'lib o'tdi. Mazkur seminarni tashkil qilishdan ko'zlangan maqsad, Investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarni statistika hisobotlarida to'g'ri aks ettirishdir.

2023-yilning 5-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida ["Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi](#). Mazkur tadbir 9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida tashkil etildi. "Ochiq eshiklar kuni" tadbirida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining mazmun-mohiyati haqida keng tushuncha berildi.

O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali – data.egov.uz Ochiq ma'lumotlar [institutining "Gold level" oltin darajadagi sertifikatini oldi](#). 2023-yil 5-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali data.egov.uz Ochiq ma'lumotlar institutining (Open Data Institute) "Gold level" oltin darajadagi sertifikatini oldi. Bugungi kunda Ochiq ma'lumotlar institutining sertifikatini dunyodagi 155 mingdan ortiq sayt va portallar olgan. Shu jumladan, dunyoda atigi 3 ta sayt eng yuqori bo'lgan "Platinum level" darajadagi sertifikatga ega – ulardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti stat.uz. Shuningdek, dunyoda jami 9 ta sayt va portallar "Gold level" oltin darajadagi sertifikat olishga muvaffaq bo'ldi va ular qatoriga O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portali data.gov.uz qo'shildi. Bu yutuqlar mamlakatimizda ochiqlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yaqqol namoyon etmoqda. Ochiq ma'lumotlar

institutining jami 4 ta darajadagi sertifikatlari mavjud: - Bronze level (bronza darajasi); - Silver level (kumush darajasi); - Gold level (oltin darajasi); - Platinum level (platina darajasi).

Joriy yilning 6-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi ([KOICA ekspertlari bilan](#)) uchrashuv tashkil etildi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasida statistika tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, iqlim o'zgarishi sohasida Koreya Respublikasi bilan hamkorlik (2025–2029-yillar) masalalarida ma'lumotlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-144-son farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi turli davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar bilan amaliy tadbirlar o'tkazib kelmoqda. Joriy yilning 6-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida "[Aholini zilzila paytida to'g'ri harakat qilishga tayyorlash](#)" mavzusida tadbir o'tkazildi. Tadbirda Agentlik xodimlariga Fuqaro muhofazasi instituti mutaxassislari tomonidan mavzu bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli favquloddagi vaziyatlar haqida ma'lumotlar berildi.

Toshkentdagi [Singapur menedjmentni rivojlantirish institutida](#) talabalar ishtirokida ochiq muloqot tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan Toshkentdagi Singapur menedjmentni rivojlantirish institutida talabalar ishtirokida ochiq muloqot tashkil etildi. Ochiq muloqotda yalpi ichki mahsulot, tashqi savdo, xalqaro tashkilotlar bilan statistika idoralarining hamkorligi, ilmiy ishda kerak bo'ladigan statistik tahlillar, ochiqlik va shaffoflik borasida talabalar tomonidan *berilgan* savollarga Statistika agentligi mutaxassislari atroflicha javob berishdi. Tadbir doirasida ikki tomonlama hamkorlikdagi "Memorandum" imzolandi.

[Aholini ro'yxatga olish jarayoniga tayyorgarlik](#) ko'rish maqsadida, hududlarda statistika organlari tomonidan mahalla faollari bilan birgalikda reja-jadval asosida mahallalardagi raqamlanmagan xonadonlarga raqam o'rnatilganligi va nom belgilari o'rnatilmagan ko'chalar holatini o'rganish ishlari davom etmoqda. O'rganish natijalari bo'yicha hududlar kesimida tahliliy ma'lumotlar tayyorlanib aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishlari uchun mahalliy hokimliklarga doimiy ravishda axborot kiritilib, kerakli chora-tadbirlar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 710-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent viloyatining barcha tuman va shaharlarida mavjud [raqamsiz uylarni raqamlash](#) va nom belgilari o'rnatilmagan ko'chalarga nom belgilarini o'rnatish ishlari amalga oshirilmoqda. Viloyatning olis tog'li hududlarida joylashgan mahallalarda ham mazkur vazifalarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan qay darajada bajarilishi Toshkent viloyati statistika boshqarmasi xodimlari tomonidan o'rganilmoqda.

Jumladan, viloyatning eng olis hududlaridan biri bo'lgan Bo'stonliq tumanidagi Pskom mahallasida o'rganish o'tkazilib, mahallaning 3 ta ko'chasida nom belgilari o'rnatilmaganligi va 152 ta turar-joylar raqamlanmaganligi aniqlangan.

Joriy yilning 13-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida "O'zbekistonda statistika tizimini mustahkamlash" loyihasi doirasida [Jahon banki missiyasi vakili bilan uchrashuv bo'lib o'tdi](#). Missiyaning maqsadi "O'zbekistonda statistika tizimini mustahkamlash" loyihasini amalga oshirishdagi keyingi bosqichlar, tadbirlar rejasi va loyiha doirasida ma'lumotlar bo'yicha so'rovlarni muhokama qilishdan iborat.

Kuala-Lumpur shahrida Osiyo va Tinch Okeani uchun Statistika instituti boshqaruv Kengashining o'n to'qqizinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. 2023-yilning 13–14-dekabr kunlari Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida Osiyo va Tinch Okeani uchun Statistika instituti boshqaruv Kengashining o'n to'qqizinchi sessiyasi va 14-15-dekabr kunlari Milliy statistika idoralari rahbarlari uchun [Menejment seminari bo'lib o'tdi](#). Ushbu tadbirlar Osiyo Tinch Okeani Ijtimoiy-iqtisodiy komissiyasi (OTOIIK) Statistika bo'limi bilan hamkorlikda tashkil etilib, boshqaruv Kengashining o'n to'qqizinchi sessiyasi mobaynida Osiyo va tinch okeani uchun statistika institutining 2024-yil uchun Ish rejasi ko'rib chiqildi.

2023-yilning 18-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida Janob Yassir Abdix boshchiligidagi Xalqaro valyuta jamg'armasi [missiya vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi](#). Uchrashuvda kelgusida hamkorlikni mustahkamlash, Yalpi ichki mahsulot statistikasi, uy-joy ko'chmas mulk narxlari indeksi, tarmoq statistikasini shakllantirish, O'zbekistonning ma'lumotlarni tarqatish maxsus standartiga (MTMS) o'tishi va texnik ko'mak masalalari muhokama qilindi.

2023-yilning 19-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan Toshkentdagi Muhammad al-

Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida talabalar ishtirokida [ochiq muloqot tashkil etildi](#). Ochiq muloqotda doimiy aholi soni, o'rtacha ish haqi, tashqi savdo, xalqaro tashkilotlar bilan statistika idoralarining hamkorligi, ilmiy ishda kerak bo'ladigan statistik tahlillar, ochiqlik va shaffoflik borasida talabalar tomonidan berilgan savollarga Statistika agentligi mutaxassislari atroflicha javob berishdi.

Joriy yilning 18–22-dekabr kunlari [Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi delegatsiyasi](#) statistika sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va o'zaro tajriba almashish maqsadida amaliy tashrif bilan O'zbekistonda bo'lishdi. Tojikiston Respublikasi delegatsiyasi tashrifining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tuzilmasi, normativ-huquqiy hujjatlar va statistika sohasidagi qonunchilik bazasi hamda markaziy apparat statistika tarmoq boshqarmalari faoliyati bilan tanishish, milliy hisoblar tizimi, sanoat, qurilish, turizm, investitsiyalar, tashqi savdo, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmatlar, transport, statistika ishlari dasturidagi pozitsiyani hisoblash kabi sohalarda tarmoq statistikasini yuritish bo'yicha tajriba almashishdir.

Joriy yilning 19-dekabr kuni Statistika agentligi Sport targ'ibotchisining 2023-yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan [hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi](#). Yig'ilishda Statistika agentligining Sport targ'ibotchisi Bobur Djalilov tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlarida belgilangan sog'lom turmush tarzi hamda davlat organlari va tashkilotlarida sportni rivojlantirishga oid chora-tadbir dasturlariga muvofiq topshiriqlar ijrosi yuzasidan Statistika agentligi tomonidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar va uning samaradorligi to'grisida hisobot taqdim etdi. Sport targ'ibotchisi tomonidan kelgusi yil uchun rejalashtirilgan sport tadbirlari haqida ma'lumot berib o'tdi.

Joriy yilning 20–22-dekabr kunlari Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida statistika boshqarmasi hamda mahalliy va davlat hokimiyati organlari iqtisodchi xodimlari uchun “Statistika asoslari” bo'yicha [o'quv kursi tashkil etildi](#). Ta'kidlash lozimki, Prezidentimizning 2020-yil 3-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida” qaroriga ko'ra, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda iqtisodiyot tarmoqlari xodimlarining bilim va ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida “Statistika asoslari” bo'yicha turli o'quv-kurslari tashkil etish vazifasi belgilangan edi.

Ochiq ma'lumotlar sohasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar bo'yicha [uchrashuv bo'lib o'tdi](#). Joriy yilning 20-dekabr kuni Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvda O'zbekiston Respublikasining ochiq ma'lumotlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan yutuqlar haqida ma'lumot berildi. Uchrashuv yakunida ikki taraflama hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga kelishib olindi.

“Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda BIG DATA, sun'iy intellekt va elektron tijorat: muammolar, vazifalar, yechimlar” mavzusida [xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil qilindi](#). Joriy yilning 22-dekabr kuni Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda BIG DATA, sun'iy intellekt va elektron tijorat: muammolar, vazifalar, yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani bo'lib o'tdi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazishdan asosiy maqsad – Raqamli iqtisodiyotning nazariy va uslubiy jihatlarini keng yoritib berish, raqamli iqtisodiyotni statistik tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy intellektning roli va o'rnini ko'rsatib berish, shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistik ko'rsatkichlarni baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Joriy yilning 22- dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida “Rasmiy statistika to'g'risida”gi hamda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonunlarning mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan [targ'ibot tadbiri o'tkazildi](#). Ta'kidlanganidek, ushbu qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuningdek, qonunda belgilangan agentlikning rasmiy statistika sohasidagi vakolatlari va vazifalari borasida so'z yuritildi.

Soha xodimlari uchun [odob-ahloq qoidalari masalalari bo'yicha](#) yig'ilish bo'lib o'tdi. 19-dekabr kuni Statistika agentligi Inson resurslarini boshqarish boshqarmasi boshlig'i – Xotin-qizlar tashkiloti raisi Zulxumor Talipova ishtirokida Xorazm viloyati statistika boshqarmasida yig'ilish tashkil etildi. Yig'ilishda boshqarmada faoliyat olib borayotgan xotin -qizlar qatnashdilar. Xususan, yig'ilganlarning e'tiborini kasbiy madaniyat, xizmat faoliyati va xizmatdan tashqari vaqtda fuqarolik xizmatchisining odob-axloqi kabi muhim tartiblari har bir xodimning maqomini belgilab berishiga qaratdi.

Yangi yil arafasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan turli tadbirlar tashkil etilib, [nafaqadagi xodimlar va ehtiyojmand oilalar holidan xabar olinmoqda](#).

Statistika agentligi Kasaba uyushmasi qo'mitasi kirib kelayotgan Yangi yil bayrami munosabati bilan uzoq yillar statistika tizimida faoliyat yuritgan mehnat faxriylari holidan xabar olinib, ular bayram bilan tabriklandi.

Joriy yilning 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti tomonidan 2023-yil amalga oshirilgan ishlari yuzasidan [hisobot yig'ilishi bo'lib](#) o'tdi. Ushbu tadbirda agentlikning Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i - Xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisi so'zga chiqib, agentlikda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va faolligini oshirish, gender tenglik kafolatlarini ta'minlash, ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, shu bilan birga agentlik xotin-qizlarining erishgan yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar berdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan yangicha - "Mahallabay" va "Fuqarobay" tizimi asosida xalq bilan muloqot qilish, ish tashkil etish, joylardagi muammolarni o'rganish hamda ularning yechimini topish, avvalo, aholining turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda vazirlik va idoralar bilan bir qatorda Statistika agentligi ham faol ishtirok etmoqda. Yangi yil munosabati bilan tashkil etilgan [xayriya tadbirlarida kam ta'minlangan](#), boquvchisini yo'qotgan, keksalar va nogironlar, ularning oilasi uchun alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlari berilib, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatildi. Statistika agentligidan tuzilgan ishchi guruhi Toshkent viloyatining Bekobod shahridagi aholi, ayniqsa, keksalar, boquvchisini yo'qotganlar, nogironlar holidan xabar olindi.

Joriy yilning 19-22-dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi loyihalari Koordinator, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT-Park) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamkorligida [o'quv-treninglar kurslari tashkil etildi](#). Ushbu o'quv treninglar Prezidentimizning 2019-yil 9-apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistik salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4273-son qarori va 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-154-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida Ochiq ma'lumotlar sohasini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 808-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etildi.

Joriy yilning 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori Bahodir Abdusalomovich hamda agentlik vakillari MDHga a'zo davlatlar statistika idoralari rahbarlari Kengashining navbatdagi [68-onlayn uchrashuvida ishtirok etdi.](#) Yig'ilishida MDH davlatlararo statistika qo'mitasi, MDH Ijroiya qo'mitasi va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi vakillari ishtirok etishdi. Mazkur uchrashuv davomida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlatlararo statistika qo'mitasining 2024-yilgi ish dasturi, "MDH statistikasini rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish borasidagi ishlar, statistika xizmatlari rahbarlari Kengashi faoliyati to'g'risidagi 2020-2023-yillar uchun hisobot, 2024-yilda MDH statistika idoralari viktorina o'tkazish hamda Kengashning bo'lajak 69-yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish masalalari muhokama qilindi.

2023-yilning 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti qoshidagi Iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi [DSc.29/30.12.2019.I.92.01 raqamli Ilmiy kengashning](#) navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Statistika agentligining Xalqaro hamkorlik va axborot almashuv boshqarmasi boshlig'i, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi Mamadaliyev Odiljon Toirovichning 08.00.06 – Ekonometrika va statistika ixtisosligida "Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining statistik tadqiqi (Namangan viloyati misolida)" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi.

2023-yilning 26-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti qoshidagi Iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi [DSc.29/30.12.2019.I.92.01 raqamli Ilmiy kengashning](#) navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi Dusnayevev Sherzod Ergashevichning 08.00.06 – Ekonometrika va statistika ixtisosligida "O'zbekiston Respublikasida demografik rivojlanishni iqtisodiy-statistik baholash" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi bo'lib o'tdi.

O'zbekistonda "[Open Data Week Uzbekistan – 2023](#)" ochiq ma'lumotlar haftaligi o'tkazildi. Joriy yilning 19-26- dekabr kunlari mamlakatimizda ochiq ma'lumotlar haftaligi – "Open Data Week Uzbekistan – 2023" bo'lib o'tdi. 19-22-dekabr kunlari, 153 ta davlat o'rganlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan 200 dan ziyod rahbar va xodimlarga "O'zbekiston Respublikasining ochiq ma'lumotlar sohasidagi yutuqlari, muammolari va istiqboldagi rejalari" mavzusida o'quv-trening tashkil etildi. Ushbu treninglar Statistika agentligi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi loyihalari Koordinator, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT-Park) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamkorligida tashkil etildi. 20-dekabr kuni O'zbekistonda ochiq ma'lumotlar sohasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar mavzusida Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. 22-dekabr kuni Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda BIG DATA, sun'iy intellekt va elektron tijorat: muammolar, vazifalar, yechimlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi.

Joriy yilning 25-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 2023-yil amalga oshirilgan ishlari yuzasidan [hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi](#). Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan joriy yil davomida statistika tizimida mehnat qilayotgan xodimlarning sog'lig'ini tiklash bo'yicha muammolarni hal etish, mehnat huquqlarini himoya qilish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash hamda sohada ishlab nafaqaga chiqqan keksa avlod vakillari borasida amalga oshirilgan ko'plab ijobiy ishlar natijalari sarhisob qilindi.

Joriy yilning 27-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan [Toshkent Moliya institutida master-klass tashkil](#) qilindi. Master-klass O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi boshlig'i tomonidan "O'zbekistonda aholi demografiyasi, aholini ro'yxatga olishning dolzarb masalalari" mavzusida olib borildi.

Joriy yilning 27-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi mutaxassislari hamda hududiy statistika boshqarmalarining Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi ma'sul xodimlari ishtirokida [onlayn seminar bo'lib o'tdi](#). Videokonferensiyada agentlikning Investitsiyalar va

qurilish statistikasi boshqarmasi va hududiy statistika boshqarmalarining ma'sul xodimlari sohadagi mavjud muammo va kamchiliklarni muhokama va tahlil qilgan holda tizimni rivojlantirish bo'yicha fikr-mulohaza almashdi. Hududiy statistika boshqarmalari xodimlariga agentlik mutaxassislariga tomonidan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar berildi.

Jamoatchilik kengashi Statistika agentligi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi. Bu borada qilingan ishlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2023-yil IV choragida Axborot xizmati tomonidan qo'mita faoliyati va statistik ko'rsatkichlarni keng jamoatchilikka yoritish maqsadida quyidagilar amalga oshirildi:

- "Statistika tizimini rivojlantirishning milliy strategiyasi: nazariya va amaliyot" mavzusida [xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya](#) o'tkazildi;
- nufuzli oliy ta'lim muassasalarida talabalar ishtirokida [ochiq muloqot va davra suhbatlari](#) o'tkazilmoqda;
- Agentlik rahbariyati va mutaxassislarining tahliliy maqolalari [gazeta va jurnallarda](#) yoritib borilmoqda;
- qiziqarli statistik ma'lumotlar asosida [infografika roliklari](#) tayyorlanib, respublika telekanallarida efirga uzatilib kelinmoqda;
- Agentlikning, Axborot xizmati rahbarining va qo'mita raisining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida har kuni doimiy tarzda 20 dan ortiq statistik ma'lumotlar va yangiliklar yoritilmoqda;
- Agentlikning [rasmiy veb-sayti](#)da hafta mobaynida doimiy ravishda 100 tadan ortiq yangiliklar joylashtirimoqda;
- foydalanuvchilar uchun oylik, choraklik va yillik tahliliy [press-relizlar](#), dokladlar 3 tilda e'lon qilinmoqda;
- Agentlikning [rasmiy veb-sayti](#) hamda [telegram](#) kanallari, [facebook](#) sahifalarida foydalanuvchilarning murojaatlariga javob berib borilmoqda;
- har kuni eng ommabop [telegram kanallari va Internet saytlari](#) uchun alohida qiziqarli qisqa topiklar tayyorlanib, keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazilishi ta'minlanmoqda;
- domiy tarzda tashkil etiladigan matbuot anjumanlari, ochiq muloqotlar va davra suhbatlari jarayonlari facebookda onlayn yoritilmoqda;
- Axborot xizmati doimiy tarzda OAV xodimlari, jurnalistlar va blogerlarning savol va murojaatlariga o'z vaqtida javob qaytarib kelmoqda.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 1-masala yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. Jamoatchilik kengashi raisi Y. Abdullayevning 2023-yil IV choragi yakuni bo'yicha kengash faoliyatiga doir hisoboti ma'lumot uchun qabul qilindi.

2. Nufuzli xorijiy tashkilot vakillari bilan tashkil etilayotgan uchrashuvlar haqida o'z vaqtida xabar berilib, soha xodimlarining o'zlashtirayotgan tajribalari haqida muntazam ravishda materiallar tayyorlanib, rasmiy saytda e'lon qilinishi ta'minlasin.

3. Jamoatchilik kengashi tomonidan xodimlar malakasini oshirish bo'yicha tashkil etilayotgan turli tadbir, seminar hamda o'quv kurslarini OAVda keng yoritish ta'minlansin.

II. "2023-yil uchun Statistika dasturi" doirasida 2023- yil IV chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida A. Ikramovning hisoboti eshitildi.

Statistika dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-fevraldagi "2023- yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 80-son qarori bilan tasdiqlangan.

Dasturga muvofiq 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida jami **3302 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda bajarildi, shundan **1830 tasi** Statistika agentligi va uning organlari tomonidan, **913 tasi** rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan va **559 tasi** boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Statistika agentligi tomonidan, iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma'lumotlari har oyda Hukumatga taqdim etib borildi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr, 2023- yilning yanvar-mart, yanvar-iyun davri uchun O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistika ma'lumotlari tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

2022- yilning yanvar-dekabr, 2023- yilning yanvar-mart, yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati" axborotnomasi (doklad) o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etilib, O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga yuborildi.

Shu bilan birga, 2023- yil yanvar, yanvar-fevral, yanvar-aprel, yanvar-may, yanvar-iyul, yanvar-avgust davrlari uchun “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” statistik risolasi 2 tilda (o‘zbek, rus) chop etilib, belgilangan ro‘yxat asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko‘ra shakllantirilgan ochiq statistika ma‘lumotlari, axborotnomalar, to‘plamlar, press-relizlar ko‘rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e‘tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, 2023- yilning yanvar–dekabr oylarida Agentlikning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida **9 856 ta**, Facebook sahifasida **9 856 ta** va Instagram sahifasida **517 ta** yangiliklar e‘lon qilindi, Instagram roliklari Agentlikning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi.

Shuningdek, **50 taga** yaqin infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **330 dan ortiq** lavhalar “O‘zbekiston 24”, “O‘zreport” telekanallarida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda.

Statistika agentligi rasmiy veb-saytining “Rasmiy statistika” bo‘limida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo‘nalishlari bo‘yicha **498 ta** statistika ma‘lumotlari to‘plamlari e‘lon qilindi (*3-ilova*).

“Xalq so‘zi”, “Narodnoye slovo”, “Yangi O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka”, “Iqtisodiy gazeta”, “Birja”, “Ishonch” va boshqa nashrlarda statistika ko‘rsatkichlari aks etgan **30 dan ziyod** materiallar chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyoti tavsiyalarini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha 2023- yil yanvar- dekabr oylarida **31ta** yangi uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqildi va amaldagi 4 ta uslubiy hujjatlar takomillashtirildi.

Statistika ma‘lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi subyektlar o‘rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar- dekabr oylarida respublikaning barcha hududlarida **110,4 mingta** respondentlarga tushuntirishlar, **88,6 mingta** yangi tashkil etilgan respondentlar proflyaktika tadbirlari davomida qamrab olindi, **123,8 mingdan** ortiq bukletlar tarqatildi va **9067-marta** ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.

Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, portalda e'lon qilinayotgan ma'lumotlar to'plamlari soni **4 ming 500 dan** oshdi.

Jumladan, Statistika agentligi tomonidan portalda e'lon qilinayotgan statistika ma'lumotlari to'plamlari soni **2198 tani** tashkil qildi.

Statistika agentligi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tizim xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturiga asosan va yangi kiritilgan o'quv kurslari asosan 2023- yil yanvar-sentabr oylarida **14 ta** o'quv kurslarida **895 nafar** xodimlarning malakasi oshirildi.

Institut tomonidan 2023- yilda amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar dasturiga muvofiq, yanvar-sentabr oylarida **4 ta** tadqiqot ishi ishlab chiqildi.

Jumladan, mart oyida 2 ta tadqiqot ishi "Bandlikni nostandart shakli va yangi turdagi mehnat faoliyatining statistik hisobini yuritish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" tadqiqot ishi Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasiga, "O'zbekiston Respublikasi mahsulotlarining (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (MST) asosida sanoat ishlab chiqarishining texnologik rivojlanishi darajasini statistik baholashni takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" tadqiqot ishi Sanoat statistikasi boshqarmasiga taqdim etildi.

"Aholi turmush darajasining dezagregirlangan ko'rsatkichlarni olish uchun uy xo'jaliklarini tanlanma kuzatuvlari statistik amaliyotiga ilg'or uslublarni tatbiq etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" tadqiqot ishi iyun oyida Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasiga taqdim etildi.

"Qishloq xo'jaligi sohasida raqamlashtirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" tadqiqot ishi sentabr oyida Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasiga taqdim etildi.

Hozirda 2 ta tadqiqot ishi yuzasidan, "Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi yo'nalishida va "Xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda uy xo'jaliklarning suv va issiqlik ta'minoti bilan yakka (avtonom) xolda ta'minlanishini statistik hisobga olish bo'yicha uslubiy tavsiyalar" tadqiqot ishi Xizmatlar sohasi statistikasi yo'nalishida ish olib borilmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mazkur qaror doirasida "Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning ma'lumotlar bazalarini Statistika agentligining axborot tizimiga integratsiya qilish va ma'lumotlarni taqdim etish reja-jadvali"da belgilangan Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mazkur qaror doirasida "Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning ma'lumotlar bazalarini Statistika agentligining axborot tizimiga integratsiya qilish va

ma'lumotlarni taqdim etish reja-jadvali"da belgilangan ishlarni bajarilishi yuzasidan yanvar-sentabr oylarida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Soliq qo'mitasi bilan birgalikda "Korxonalar va tashkilotlarning moliya-xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha yillik ma'lumotlarni hamda korxonaning boshqa oylik ma'lumotlari" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

2. Soliq qo'mitasi bilan birgalikda "Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari to'g'risida onlayn nazorat-kassa tizimidagi ma'lumotlari" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

3. Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda "e-ijara" elektron platformasidagi qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlari" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

4. Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda "Geoaxborot tizimidagi (qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan asosiy va takroriy maydonlar) ma'lumotlari" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

5. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan birgalikda "Xizmatlar eksporti va importi bo'yicha ma'lumotlar sifatini oshirish maqsadida "Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi" ma'lumotlari bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

6. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda "Qurilish-montaj ishlarini bajarayotgan pudratchi va yordamchi pudratchilar, buyurtmachilarning oylik bajarilgan qurilish-montaj ishlari hamda qurilish korxonalar va tashkilotlarning balansdagi qurilish mashina va mexanizmlari to'g'risidagi ma'lumotlari" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

7. Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda "Tazyiq va zo'rvonlik natijasida jabrlanganlar, shuningdek, tazyiq va zo'rvonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

8. IIV Jamoat xavfsizligi departamenti bilan birgalikda YHXX "Avtotransportda yo'l-transport xodisalari, mavjud hamda yangi avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish va avtotransport vositalari soni to'g'risidagi ma'lumotlar" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi;

9. Bojxona qo'mitasi bilan birgalikda "Bojxona chegaralari orqali olib o'tilgan yuklar hamda avtomobil transportida xalqaro yuk tashishlar to'g'risida ma'lumotlar" bo'yicha integratsiya orqali ma'lumotlar almanishuvi yo'lga qo'yildi.

10. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligi bilan birgalikda "Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiya qilish" bo'yicha texnologik yo'riqnoma imzolandi. Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan integratsiya moduli ishlab chiqilmoqda;

11. Transport vazirligi bilan birgalikda "Avtomobil transportida yo'lovchilar va yuklarni tashish faoliyatini litsenziyalash to'g'risida va yo'nalishlar bo'yicha korxonalar va tashkilotlarning mavjud litsenziya kartochkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiya qilish orqali Statistika agentligiga taqdim etishni yo'lga qo'yish" bo'yicha texnologik yo'riqnoma imzolandi va integratsiya yo'lga qo'yildi;

12. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda "Onlayn mahalla" elektron platformasidagi qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlarni integratsiya qilish orqali taqdim etishni yo'lga qo'yish bo'yicha texnologik yo'riqnoma imzolandi va integratsiya yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori doirasida amalga oshirilgan ishlar.

Statistika agentligi:

har yili 1-dekabr qadar mamlakatda milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohani isloh qilish jarayonlarining ishonchliligi hamda to'liqligini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan Statistika dasturini Jamoatchilik kengashiga kelishish uchun taqdim etib bormoqda;

har yili 1-oktyabr qadar Statistika dasturining bajarilishi natijalari va statistika sohasida metodologiyani takomillashtirish hamda ishlarni tashkil etish borasida olib borilayotgan faoliyat samaradorligi to'g'risidagi hisobotni Statistika kengashiga kiritib bormoqda.

Ushbu qaror bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda 'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning 4-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan (2022-y. 27. 12. 41-son qaror) Statistik ma'lumotlarning universal modeli (GSIM) statistika amaliyotiga joriy qilingan.

Shuningdek, hozirgi kunda Milliy model umumiy tuzilmasidagi bosqich va jarayonlarni tavsiflovchi uslubiy qo'llanmani (GSBPM) (2021-y. 17.12 58-son qarori) va Statistika idoralari faoliyatini boshqarishning universal modelini (GAMSO) (2022- y. 27.05. 38-son buyruq) Statistika agentligining faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish choralari ko'rilmoqda.

Shu o'rinda, 2023- yilning fevral-sentabr oylarida agentlikning markaziy apparat boshqarmalari rahbarlari ishtirokida "Statistika faoliyatiga sifatni boshqarishning ilg'or tizimlarini (GSIM, GSBPM, GAMS0) joriy etish masalalariga bag'ishlangan seminarlar o'tkazildi.

Rasmiy statistika sohasida BMTning "Rasmiy statistikada sifatni ta'minlashning milliy tayanch prinsiplari bo'yicha qo'llanma"si (NQAF) talablari asosida sifatni boshqarish ishlarini tizimli tashkil etish maqsadida, **Sifat sohasidagi siyosati** ishlab chiqildi va tasdiqlandi (2023- y. 27.03. 13-son buyruq).

Statistika agentligining "Rasmiy statistikani tayyorlovchilarning statistika uslubiyotlarini auditdan o'tkazish bo'yicha 2023- yil uchun reja-jadvali"ga muvofiq, joriy yilning iyun-avgust oylarida Madaniyat vazirligida statistika uslubiyatlari auditdan o'tkazildi.

Vazirlikda madaniyat statistikaci tahlil qilinib, statistik ko'rsatkichlarni hisoblashda qo'llanilayotgan metodologiyalarni xalqaro standartlarga muvofiqligi o'rganildi.

O'rganish natijalari yuzasidan, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 6- noyabrdagi 690-son qarori bilan tasdiqlangan Rasmiy statistikani ishlab chiquvchilarning statistika metodologiyalarini auditdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan Madaniyat vazirligiga taqdimnoma kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 10- noyabrdagi "Hisobot taqdim etish va arxiv hujjatlarini saqlash tartib-taomillarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-419-son qarori ijrosi doirasida bekor qilingan **9** ta statistika hisobotlaridagi ma'lumotlarni vazirlik va idoralarning ma'muriy ma'lumotlari asosida shakllantirilishini ta'minlash maqsadida **14 ta** vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar ro'yxati, ularni bajarish davriyligi hamda muddatlari ko'rsatilgan holda **2023- yil uchun Statistika dasturiga** kiritilgan.

Bundan tashqari 2023-yil uchun statistika hisoboti shakllarida quyidagi o'zgarishlar amalga oshirilgan.

Jumladan:

4 ta hisobot shakllarini o'zaro birlashtirish, ma'muriy ma'lumotlarga o'tkazish va mavsumiyligini hisobga olgan holda bekor qilingan;

62 ta statistika hisoboti va ilovalaridagi (*jamiga nisbatan 55,4%*) ko'rsatkichlar sonini 2022- yilga nisbatan jami **3174** taga yoki **17,7%**ga qisqartirish orqali soddalashtirilgan;

47 ta (*jamiga nisbatan 46,9%*) hisobot shakllarining topshirish muddatlari maqbullashtirilgan.

Natijada, 2023- yil uchun **98 ta** (2022- yilda 110 ta) hisobot shakllari tasdiqlangan va Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Qarorga asosan statistika hisobotlarini maqbullashtirish bo'yicha Statistika agentligi tomonidan **29 ta** manfaatdor vazirlik hamda idoralarning malakali xodimlaridan tashkil topgan **5 ta** idoralararo ishchi guruhi tuzilgan.

2022- yilning 5-13-dekabr kunlari bo'lib o'tgan Ishchi guruhlarining yig'ilishlarida jami **30 ta** hisobot shakllari ko'rib chiqilgan, natijada **22 ta (73,3%)** statistika hisobotlaridagi (*1 teatr, 1 konsert, 1 turizm, 1 muzey, 1 jismoniy tarbiya, 1 sport, 1 umumta'lim, 1 ta'lim (maktabdan tashqari), 1 o'rta ta'lim, 1 oliy ta'lim, 1 tib (ayollar), 1 tib (bolalar), 1 tib (oiv), 1 tib (vaksinatsiya), 1 tib (infeksiya), 1 tib (reabilitatsiya), 1 nogironlik, 1 film, 1 oila, 1 energiya (neftgaz), 12-korxonona (sanoat) yillik davriylikdagi, 1-o'x*) ma'lumotlarni tegishli vazirlik va idoralarning ma'muriy ma'lumotlari asosida shakllantirilishi, **1 ta (3,4%)** statistika hisoboti (1 maktabgacha ta'lim) ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilinishi hisobiga **bekor qilinishi** va **7 ta (23,3%)** statistika hisobotlaridagi (1 pensiya, 1 kb (akt), 4 akt, 1 energo (gaz), 1 mehnat, 4 mehnat, 1 kom (shahar)) ko'rsatkichlarning qisqartirilishi hisobiga **soddalashtirish** belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari tomonidan 2024- yil uchun statistika kuzatuvlari loyihalarini tayyorlash yuzasidan xalqaro va milliy amaliyot keng tahlil qilindi.

Kelgusi yil uchun statistika kuzatuvi shakllari loyahasini tayyorlashda respondentlarning toifalari va qamrovi yana qaytadan aniqlashtirildi, ma'lumotlarni yig'ish instrumentariysi va usullarining zamon talablariga mosligi, shuningdek, statistika hisoboti shaklining tarkibi, mazmuni, qamrovi va ulardagi ko'rsatkichlarni ma'muriy ma'lumotlar bilan qoplash imkoniyatlari hamda respondentlarga nisbatan hisobot yuklamasini kamaytirish inobatga olindi.

Statistika hisoboti shakllariga kiritilayotgan o'zgartirishlar natijasida 2024- yil uchun 72 ta hisobotlar shakllari loyihasi tayyorlandi va bugungi kunda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida jamoatchilik muhokamasi olib borilmoqda.

Xususan, 2023- yilda amaliyotda 98 ta hisobotlar shakllari mavjud bo'lib, kelgusi yilda 27 taga yoki 26,5 foizga kamaytirish ko'zda tutilmoqda.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 2-masala yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. “2023-yil uchun Statistika dasturi” doirasida 2023- yil IV chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida hisobot ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
2. Milliy statistika tizimini yanada rivojlantirish yuzasidan kelgusida bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqilsin.
3. Statistika dasturining bajarilishi va statistika sohasidagi metodologiyani takomillashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

III. Xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi hamda Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha Z. Ziyayevning hisoboti eshitildi.

Xalqaro tashkilotlar bilan sohani rivojlantirish, ilg‘or tajribalar va zamonaviy uslubiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish yuzasidan yaqindan hamkorlik hamda mamlakat ko‘rsatkichlarini xalqaro axborot bazalarida aks ettirish yuzasidan axborot almashinuvi aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

XVJning kengaytirilgan Ma‘lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (e-GDDS) doirasida **275 ta** indikator bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plamlari har oyda muntazam yangilab borilmoqda.

Bundan tashqari, XVJning kengaytirilgan Ma‘lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (e-GDDS) Ma‘lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (SDDS) o‘tish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida xalqaro tashkilotlarning **27 ta** savolnomalari, jumladan, BMT Statistika bo‘limining **7 ta**, BMTning BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasining **2 ta**, YuNESKO statistika institutining **5 ta**, Xalqaro Mehnat Tashkilotining **1 ta**, Xalqaro Elektroaloqa Ittifoqining **1 ta** va boshqa xalqaro tashkilotlarning **11 ta** savolnomalari to‘ldirildi va taqdim etildi.

Bundan tashqari, **4 ta** xalqaro ma‘lumotlar bazalaridagi, xususan XVJning kengaytirilgan Ma‘lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH, “COMTRADE” va “TRANSMONEE” ma‘lumotlar bazalarida O‘zbekistonning statistika ko‘rsatkichlari o‘z vaqtida yangilandi.

Jumladan, tovarlar savdosi bo‘yicha BMTning “COMTRADE” axborot bazasida **3 mingdan ortiq** tovar turlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ma‘lumotlarini har oyda yangilab borilishi ta‘minlanmoqda.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish yo‘nalishida monitoringni yo‘lga qo‘yish masalalarida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21- fevraldagi “2030- yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 83-son qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorning 1-ilovasi bilan **2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari** sifatida O‘zbekiston

uchun dolzarb hisoblangan **16** ta milliy maqsad va BRMning **126** ta milliy vazifalar ro'yxati tasdiqlangan.

*Ma'lumot uchun: Global miqyosda **17** ta maqsad **169** ta vazifa va **232** ta indikator tasdiqlangan.*

Shuningdek, mazkur qarorning 2-ilova bilan tasdiqlangan, 2022–2026-yillarda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga samarali erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida, Statistika agentligi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarining milliy indikatorlari bo'yicha idoralararo ishchi guruhi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. MBRMning raqamlarda aks etuvchi jami **77** ta indikator bo'yicha 2022- yildan 2030- yilgacha bo'lgan davrlar uchun dastlabki maqsadli ko'rsatkichlari shakllantirilib, 2030- yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashga tasdiqlash uchun kiritildi va Kengash tomonidan tasdiqlandi.

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi mas'ullari bilan hamkorlikda, Bangkok (Tayland) shahrida joylashgan Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi(ESCATO)ning SDG Tracker platformasini yuritilishiga mas'ul bo'lgan xalqaro ekspertlari bilan aloqalar o'rnatilib, videokonferensaloqa orqali masofaviy tarzda uchrashuvlar tashkil etildi.

Uchrashuvlar natijalariga ko'ra, SDG Tracker platformasida O'zbekiston Respublikasi sahifasi ochildi hamda O'zbekiston Respublikasining milliy barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari yuritilishi amaliyoti joriy etildi.

3. Statistika agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda **10** ta indikator global ko'rsatkichlar tizimida mavjud emasligini inobatga olgan holda Milliy BRM indikatorlari ro'yxatidan chiqarib tashlash, shuningdek, BMT Statistika Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan BRM global indikatorlari tizimi asosida **35** ta Milliy BRM indikatorlarni qayta ko'rib chiqish va BMT Statistika Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan global indikator matni asosida Milliy BRM indikatorlarini qabul qilish taklifi Kengashga kiritildi.

4. Statistika agentligi tomonidan umumlashtirilgan 2030-yilgacha bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlari (**77** ta indikator) Kengashning (29.04.2022-yil. 02/1-1261-son) 1-son qarori bilan 1-ilovaga muvofiq tasdiqlandi;

global indikatorlar ro'yxatida mavjud bo'lmagan (**10** ta indikator) Milliy BRM indikatorlarni tegishli tartibda 2-ilovaga muvofiq chiqarib tashlandi;

global indikatorlar tizimidan kelib chiqqan holda Milliy BRM indikatorlar ro'yxatiga (**35** ta indikator) 3-ilovaga muvofiq tegishli tartibda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritildi;

O'zbekiston uchun dolzarb hisoblangan Milliy BRM indikatorlar ro'yxati (190 ta indikator) 4-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

*Ma'lumot uchun: Tasdiqlangan **190** ta milliy BRM indikatorlarining **152 tasi** global BRM indikatorlari bilan to'liq mos keladi, **28 tasi** proksi indikator va **10 tasi** milliy indikator hisoblanadi.*

5. Statistika agentligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda **139** ta Milliy BRM indikatorlari bo'yicha ma'lumotlar shakllantirilib Milliy BRM veb-sayti (www.nsdg.stat.uz)ga joylashtirildi.

6. Statistika agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha yillik statistik to'plami o'zbek, rus va ingliz tillarida 2019- yildan boshlab har yili nashr etilib vazirlik va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlarga taqdim etib borilmoqda, shuningdek, ushbu to'plamning elektron shakli <http://nsdg.stat.uz> veb saytiga joylashtirib kelinmoqda. Milliy BRM bo'yicha statistik to'plamning ingliz tilidagi shakli BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi rasmiy veb-saytida MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib e'lon qilindi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari sifatini ta'minlashda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy statistika sifatini ta'minlashning milliy asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshirib, xalqaro tavsiyalar asosida takomillashtirib borilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limining veb sahifasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ilg'or tajribalarga ega davlatlarning ushbu sohada amalga oshirayotgan ishlari yoritib boriladi.

2022- yil yakuniga ko'ra **87** ta eng ilg'or tajribalar ega davlatlar qatoridan O'zbekiston Respublikasi ham joy oldi va mamalakatimizda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni kuzatib borish va jamoatchilikni xabardor qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot e'lon qilingan.

Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha erishilgan natijalarni kuzatib borish va ushbu sohada mamlakatdagi mavjud vaziyat to'g'risida dolzarb ma'lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish maqsadida, 2019- yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining texnik ko'magi bilan O'zbekiston Respublikasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha veb-sayt (<https://nsdg.stat.uz/>) ishlab chiqilgan.

Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari veb-sayti O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha yutuqlarni tahlil qilish va kuzatishda milliy va xalqaro foydalanuvchilar uchun yagona va ishonchli ma'lumotlar manbai hisoblanadi.

Veb-sayt o'zbek, rus va ingliz tillarida yuritiladi. Veb-sayt MDH mamlakatlari orasida ilg'or amaliyotning ajoyib namunasi va Birlashgan

Millatlar Tashkiloti tizimi bilan muvaffaqiyatli hamkorlik natijasi sifatida e'tirof etildi.

Bundan tashqari, Statistika agentligi tomonidan 2018, 2019, 2020 va 2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasida Milliy BRMLarga erishish bo'yicha statistik ko'rsatkichlar to'plamlari" uch tilda (rus, o'zbek va ingliz tillarida tayyorlangan va nashr etilgan.

Shu bilan birga, Statistika agentligi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi milliy taraqqiyotni o'lchash va mamlakat o'z milliy ma'lumotlari hamda ko'rsatkichlaridan foydalanishi uchun taraqqiyot to'g'risida siyosiy jihatdan hisobot berish uchun mo'ljallangan yangi ESKATO-BRM vositasi "SDG Tracker" ni joriy etdi, shuningdek, foydalanuvchilarga qulay boshqaruv paneli yaratildi.

Hozirda mavjud ma'lumotlarni BRM "SDG Tracker" boshqaruv paneliga kiritish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Qishloq xo'jaligida ro'yxatdan o'tkazish tadbirlarini tashkil etish masalalarida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlarni strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-son Farmonining 82-bandida nazarda tutilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26 fevraldagi "Qishloq xo'jaligi sohasida statistik ma'lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" 104-son hamda 2022-yil 19-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida sinov tariqasida qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish ishlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 197-son qarorlari qabul qilingan.

Qishloq xo'jaligida ro'yxatdan o'tkazish tadbirlarini tashkil etish masalalarida 2023-yil yanvar–sentabr oylarida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ishlab chiqilgan.

Mazkur loyiha normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (project.gov.uz) orqali manfaatdor vazirlik va idoralar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishilgan.

Vazirlik va idoralardan berilgan taklif va e'tirozlar ko'rib chiqilgan, o'rinli deb topilgan takliflar asosida loyihaga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan.

Loyihani huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 2023-yil 11-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etilgan.

Adliya vazirligi tomonidan loyiha yuzasidan 2023- yil 16-yanvarda taqdim etilgan javob xatida Moliya vazirligi bilan qayta kelishish bayon etilganligi sababli, 2023-yil 18-yanvarda loyiha normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi (project.gov.uz) orqali idoraviy kelishuv uchun Moliya vazirligiga qayta kiritilgan.

2023- yil 14- fevralda Moliya vazirligi tomonidan loyihaga berilgan taklif va e'tirozlar ko'rib chiqilgan, o'rinli deb topilgan takliflar asosida loyihaga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan hamda 2023-yil 18-fevralda Moliya vazirligiga yuborilgan.

Xususan, xalqaro amaliyotda, xalqaro tashkilotlar jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tavsiyalari asosida dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan aholini ro'yxatga olish tadbiridan so'ng, qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish amaliyoti joriy etilgan.

Shunga ko'ra, joriy yilning 19-23-iyun kunlari Polsha davlatining Varshava shahrida tashkil etilgan o'quv-tanishuv safarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi (ISCAD), shuningdek Yevropa Ittifoqining qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash dasturi ("Ask Facility") vakillari ishtirokida Polsha davlatining qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishni tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha tajribasi ham o'rganildi.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazish muddatiga aniqlik kiritilgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish masalasini ko'rib chiqish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasiga Statistika agentligining 2023- yil 20- fevraldagi, shuningdek, 31-avgustdagi 01/1-11-19-97-son rasmiy xatlari yuborilgan.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 3-masala yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. Z. Ziyayevning xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. Qishloq xo'jaligi sohasida ro'yxatdan o'tkazish tadbirlarini tashkil etish bo'yicha tashkil etilayotgan chora-tadbirlarni jamoatchilikka yetkazish hamda OAVda keng yoritish ishlari tashkil etilsin.

IV. Aholini ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni amalga oshirish bo'yicha Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i Berdiqulov Qobil G'ulamovich ma'lumot berdi.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishida to'rtinchi masala yuzasidan Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i Berdiqulov Qobil G'ulamovich batafsil to'xtalib o'tdi.

"Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5655-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 11-noyabrdagi 710-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va aholini ro'yxatga olishga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida 2023-yil yanvar-sentabr oylarida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, aholini ro'yxatga olish tadbirining nechog'lik muhimligi, ahamiyati va mohiyati yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, hududiy statistika organlari tomonidan ommaviy axborot vositalarida, jumladan, televideniya da 49 ta ko'rsatuvlar va radioda 61 ta eshittirishlar tashkil etildi. Turli rasmiy veb-saytlarda 321 tadan ortiq maqola va tezislarda joylashtirildi hamda gazeta va jurnallarda 125 ta maqolalar chop etildi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida 98 ta va maktablarda 251 tadan ortiq davra suhbatlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida raqamlashtirish bo'yicha berilgan topshiriqlarga muvofiq, aholini ro'yxatga olishni 2024-yilda Internet tarmog'i orqali va planshet qurilmalaridan foydalangan holda o'tkazish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga takliflar kiritildi.

Sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish natijalari va xalqaro ekspertlar tavsiyalari asosida "O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va Vazirlar Mahkamasining qarori loyihalari ishlab chiqildi. Shuningdek, quyidagi normativ va uslubiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha hujjat loyihalari tayyorlandi:

- O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tartibi to'g'risida **nizom**;
- O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda aholini ro'yxatga olishning tuman va shaharlar bo'yicha tashkiliy rejasini tuzish tartibi;
- O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda aholini ro'yxatga olishning dasturi va O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda aholini ro'yxatga olishning savolnoma **varag'i shakllari**;
- O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda aholini ro'yxatga olish varag'i shakllarini to'ldirish bo'yicha **yo'riqnoma**;
- Planshet qurilmalari yordamida aholini ro'yxatga olish bo'yicha **qo'llanma**;
- O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda aholini ro'yxatga olish jarayonlariga jismoniy va yuridik shaxslarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risida **nizom**.

Aholini ro'yxatga olish savolnomlarini aholi uchun yanada tushunarli va sodda bo'lishini ta'minlash maqsadida sinov jarayonlarida aholi tomonidan savolnomalardagi ayrim savollarga bildirilgan e'tiroz va takliflar hamda sinov jarayonlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida **savolnomalar takomillashtirildi**.

Jumladan, **1-shakl** "Turar joyning xususiyatlari va unda yashovchilar ro'yxati" savolnomasidagi uzoq vaqt foydalanadigan vositalar ro'yxati maqbullashtirildi (yengil avtomobil, yuk avtomobili, mikroavtobus, traktor, mototsikl, skuter, moped, mobil telefon savollari savolnoma tarkibidan chiqarildi). **2-shakl** "Shaxsga oid savolnoma"sidagi bir oydagi daromadingiz qancha, sport bilan shug'ullanasizmi kabi savollar savolnoma shaklidan chiqarilib, soddalashtirildi.

Shuningdek, "Aholini ro'yxatga olish" **axborot tizimi** 2021-yil noyabr oyida sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish jarayonlarida sinovdan o'tkazilgan. Sinov jarayonlarida aniqlangan kamchiliklar va muammolardan kelib chiqib, xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida mazkur axborot tizimini takomillashtirish ishlari davom ettirilmoqda.

Jumladan, Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tish jarayonlari soddalashtirilmoqda, elektron savolnomalarni aholi uchun yanada sodda va tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida har bir savolga izohlar kiritildi. Shuningdek, mazkur axborot tizimida Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan aholi to'g'risida tezkor ro'yxat shakllantirish va ushbu ro'yxatlarni ro'yxatga oluvchi xodimlarning planshet qurilmalariga elektron shaklda yetkazishni ta'minlovchi alohida funktsiya yaratildi.

Kadastr organlari bilan hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasida 424 ta, Andijon viloyatida 889 ta, Buxoro viloyatida 544 ta, Jizzax viloyatida 301 ta, Qashqadaryo viloyatida 802 ta, Navoiy viloyatida 330 ta, Namangan viloyatida

792 ta, Samarqand viloyatida 1126 ta, Surxondaryo viloyatida 721 ta, Sirdaryo viloyatida 237 ta, Toshkent viloyatida 1020 ta, Farg'ona viloyatida 1062 ta, Xorazm viloyatida 530 ta, Toshkent shahrida 579 ta mahalla mahalla xaritalariga tegishli o'zgartirishlar kiritilib, to'liq yangilandi.

Bulardan tashqari, hududlarda raqamlanmagan uy va xonadonlar hamda nomi o'zgargan ko'chalarga yangi nom belgilarini o'rnatish bo'yicha mahalla raislari va faollari bilan joyiga chiqqan holda o'rganilib, haftalik ma'lumotlar shakllantirib borilmoqda. Registratorlar tomonidan o'rganishlar natijasida aniqlangan jami 1,3 mln.ta raqamsiz uylar to'liq joyiga chiqib o'rganildi. O'rganish natijasida 557,1 ming ta uylarga raqam ilinganligi (jami o'rganilgan uylarning 44,9 foizi) ma'lum bo'ldi. Raqamlanmasdan qolayotgan 749,3 ming ta uylar ro'yxati mahalliy hokimliklarga ma'lumot uchun kiritilib, ularni raqamlash ishlarini tezlashtirish yuzasidan topshiriq xatlari chiqarildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining 2023-yil 24-martdagi 03/183-son xatiga asosan Agentlikning 2023-yil 31-martdagi 01/3-20-13/2-12-son xati bilan aholini ro'yxatga olish tadbirini **geoaxborot tizimlaridan** (GAT) keng foydalangan holda tashkil etish rejalashtirilayotgani va kelgusida geoaxborot tizimlaridan foydalanish zarurligi haqida taklif bildirildi.

Shu maqsadda Kadastr agentligi bilan hamkorlikda aholi punktlarining sxematik rejasi va xaritalarini GAT dasturida shakllantirish maqsadida elektron ma'lumotlar bazasi yaratilmoqda. Hozirgi kunda barcha hududlarda GAT dasturi uchun ma'lumotlar kiritilishi davom etmoqda.

2023-yil 20-aprel kuni BMT Aholishunoslik jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda Buyuk Britaniyaning soha bo'yicha mutaxassisi janob Sarchil Qader bilan videokonferensaloqa ko'rinishida uchrashuv tashkil etilib, aholini ro'yxatga olishda hududlarni **GAT texnologiyalaridan foydalangan holda uchastkalarga bo'lish va ma'lumotlarni planshet qurilmalariga yuklash** masalalari muhokama qilindi.

Chinoz tumani misolida mahalla xaritalari GAT tizimida Mutaxassis tomonidan hisob uchastkalarga ajratib chiqilib, Agentlik mutaxassislari tomonidan mazkur ma'lumotlarni o'rganib chiqilmoqda.

Shuningdek, 2023-yil 31-may kuni janob Sarchil Qader bilan videokonferensaloqa ko'rinishida navbatdagi uchrashuv tashkil etilib, unda aholini ro'yxatga olishda hududlarni GAT texnologiyalaridan foydalangan holda Chinoz tumani misolida mahalla xaritalarini uchastkalarga bo'lib chiqish natijalarini to'g'riligini va berilgan o'rtacha yuklamalarga mosligini aniqlash hamda bo'lish jarayonida **uchraydigan muammolar muhokama qilindi.**

Bundan tashqari, 2023-yilning 8-12-may kunlari Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limi BMT-Habitat bilan hamkorlikda va Yevropa Komissiyasi

tomonidan urbanizatsiya darajasini baholash metodologiyasini amalga oshirish bo'yicha mintaqaviy seminar tashkil etilib, unda Agentlikning Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi bosh mutaxassisi S.Guseynov hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va axborotlashtirish interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi bosh mutaxassisi Z.Toymasov ishtirok etishdi.

Seminarda urbanizatsiya darajasini baholash metodologiyasini joriy etish, shaharlar va qishloq joylarini ilmiy asosda bo'lib chiqish, shuningdek, GAT texnologiyalaridan foydalangan holda aholini ro'yxatga olishning ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lish usullarini qo'llash, bundan tashqari, aholini ro'yxatga olish natijalarini e'lon qilishda GAT texnologiyalaridan foydalanish masalalari bo'yicha o'quv-mashg'ulotlar bo'lib o'tdi.

Seminarda olingan bilimlar asosida GAT texnologiyalarini aholini ro'yxatga olish jarayonlarida qo'llash bo'yicha mutaxassislar tomonidan ishlar olib borilmoqda.

Joriy yilning **22-23-may** kunlari Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida "Aholini ro'yxatga olish: muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi **xalqaro forum** bo'lib o'tdi. Mazkur forumda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori o'rinbosari Z.Ziyayev va Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i Q.Berdiqulov ishtirok etdi.

Forumda ta'kidlandiki, MDH davrlarining deyarli barchasi tomonidan aholini ro'yxatga olishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (**Internet tarmog'i orqali, planshet qurilmalari, mobil smartfonlar**) keng foydalangan holda elektron shaklda o'tkazilgan. Birgina Ozarbayjon Respublikasi aholini ro'yxatga olishda qog'oz usulidan foydalangan. Moldova Respublikasida aholini ro'yxatga olishni o'tkazish 2024-yilda rejalashtirilgan.

Aholini ro'yxatga olishni o'tkazgan barcha davlatlar tomonidan aholini ro'yxatga olishni elektron shaklda o'tkazish tashkiliy, iqtisodiy va eng asosiysi sifat jihatdan **samarali ekanligi ta'kidlandi**.

Shuningdek, mazkur forumda O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishga ko'rilayotgan tayyorgarlik ishlari, jumladan, 2021-yilda o'tkazilgan sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish natijalari, aniqlangan kamchiliklar, xulosalar va kelgusida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to'g'risida **taqdimot qilindi**.

Taqdimot yakuniga ko'ra, forum ishtirokchilari tomonidan O'zbekistonda sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish jarayonlari haqida savollar berildi va sinov bosqichi xalqaro talablarga mos ravishda muvaffaqiyatli o'tkazilganligi alohida **e'tirof etildi**.

O'z o'rnida, ushbu sessiya muhokamasida BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi va MDH Davlatlararo statistika qo'mitasi tomonidan aholini

ro'yxatga olishning 2020-yil raundi 2024-yilda tugashini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasiga 2024-yildan kechiktirmasdan aholini ro'yxatga olishni o'tkazish tavsiya etildi.

Shuningdek, **2023-yilning 12-15-iyun** kunlari Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasining 2 nafar mutaxassisleri va Navoiy viloyati boshqarma boshlig'i Turkiyaning Anqara shahriga seminarda ishtirok etish uchun xizmat safariga yuborildi. Ushbu seminar BMTning Statistika bo'limi, BMTning Yevropa Iqtisodiy qo'mitasi, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi, BMTning Osiyo va Tinch okeani instituti, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti, Islom mamlakatlari uchun statistik, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash markazi tomonidan tashkil etilgan bo'lib, unda aholini ro'yxatga olishning an'anaviy usulidan **aholi registrga asoslangan usulga o'tishning afzalliklari** bo'yicha masalalar muhokama qilindi.

2023-yilning 10-13-iyul kunlari Qozog'iston Respublikasining Ostona shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik jamg'armasining (YUNFPA) "Sifatli ma'lumotlar – samarali siyosat" (CISPop) mintaqaviy dasturi doirasida MDH-STAT AQSH aholini ro'yxatga olish byurosi va YUNFPA bilan birgalikda "**Aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarini tarqatish**" mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Ushbu seminarda ishtirok etish uchun Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasining 1 nafar mutaxassisi xizmat safariga yuborildi. Seminar kun tartibiga muvofiq aholini milliy ro'yxatga olish natijalarini tarqatish shakllari va usullari, anonimlashtirilgan mikroma'lumotlar bazasining foydalanuvchilar uchun ochiqligi, aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarini tarqatishda **geofazoviy texnologiyalardan foydalanish** kabi masalalar muxokama qilindi.

Shuningdek, **2023-yilning 24-26-iyul kunlari** Belarus Respublikasining Minsk shahrida Aholini ro'yxatga olish tadbirlarida **ro'yxatga olish uchastkalarini tashkil etish** bo'yicha Belarus Respublikasi tajribasini o'rganish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) hamda Belarus Statistika qo'mitasi bilan hamkorlikda o'quv seminari tashkil etildi. Seminarda Statistika agentligining Aholini ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va axborotlashtirish interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi mutaxassisleri, Kadastr agentligi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA)ning O'zbekistondagi vakillari ishtirok etishdi.

Seminar davomida Belarus Milliy statistika qo'mitasi mutaxassislarining aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rishda elektron kartografik ma'lumotlardan foydalanish, aholini ro'yxatga olish hududlarini tashkil etish, shuningdek, hududni ro'yxatga olish va ro'yxatga olish hududlariga bo'lish

uchun **GAT texnologiyalaridan foydalanish**, geografik ma'lumotlar bazalarini yaratish uchun modullar ishlab chiqish bo'yicha bilim va tajribalari o'rganildi.

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha statistika agentligi xodimlari malakasini oshirish ishlari davomi sifatida **2023-yilning 18-22-sentyabr** kunlari Shveysariyaning Jeneva shahrida "BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining aholini ro'yxatga olish haftaligi – 2023" aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish bo'yicha ekspertlar guruhining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasining 1 nafar mutaxassisi ishtirok etdi. Tadbirning maqsadi – ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish sohasida tajriba almashish, aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish, aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish sohasida **Yevropa statistikasi konferensiyasi tavsiyanomasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish**dan iborat bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda, tadbirda ishtirokchi davlatlar o'rtasida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish sohasida tajriba almashilib, mavjud muammolar va ularning yechimi yuzasidan muhokamalar bo'lib o'tdi. Tadbir so'nggida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazish samadorligini yanada oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

2023-yilning 9-13-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida hududiy statistika boshqarmalarining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limlari xodimlari uchun **malaka oshirish kursi** tashkil etildi. Mazkur o'quv kursi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi xodimlari tomonidan o'tkazildi va unda aholini ro'yxatga olishning mohiyati, maqsadi, o'tkazish bosqichlari, MDH va xorijiy davlatlarning aholini ro'yxatga olishni o'tkazishdagi tajribalari va hozirda respublikamizda aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga tayyorgarlik holati to'g'risida ma'ruza qilindi. O'qitish davomida aholini ro'yxatga olishni o'tkazish bilan bog'liq barcha savollarga batafsil javob berildi va kelgusida bajariladigan ishlar rejalashtirib olindi.

2023-yil 27-28-noyabr kunlari onlayn videokonferensaloqa platformasi orqali Islom mamlakatlari bo'yicha statistik, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash markazi (SESRIC) tomonidan Islom hamkorlik tashkilotiga (IHT) a'zo davlatlarning Milliy statistika idoralari uchun "**Migratsiya statistikasi va qochqinlar**" mavzusida o'quv kursi tashkil etildi. Tadbirda Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi xodimi ishtirok etdi. O'quv kursining asosiy maqsadi migratsiya

va qochqinlar bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni to'plash, jamlash, qayta ishlash va tarqatish sohasida ishtirokchilar salohiyatini oshirish, asosiy manba bo'lgan aholini ro'yxatga olishdagi migratsiya ma'lumotlarini qayta ishlash shuningdek, Turkiya tajribasini ishtirokchi IHTga a'zo davlatlar bilan almashishdan iborat bo'ldi.

Shuningdek, **2023-yil 30-noyabr kuni** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida **aholini ro'yxatga olishda migratsiya masalalari** bo'yicha vebinar tashkil etildi. Ushbu tadbir Rossiya Federal davlat statistika xizmati va MDH Statistika qo'mitasi tomonidan tashkil etildi. Tadbirda Statistika agentligining Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi hamda Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi xodimlari ishtirok etdi. Vebinar davomida ishtirokchilar aholini ro'yxatga olish bo'yicha amalga oshirayotgan ish tajribalari bilan o'rtoqlashdi. Shuningdek, **aholi migratsiyasi va uning etnik-madaniy xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plash** hamda **migratsiya tadqiqotlari** borasida fikr-mulohaza almashildi.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 4-masala yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. Aholini ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi boshlig'i Berdiqulov Qobil G'ulomovichning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Aholini ro'yxatga olish ishlariga puxta tayyorgarlik ko'rish samaradorligini oshirish hamda mazkur jarayonlardan keng jamoatchilikni xabardor qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin.

3. Aholini ro'yxatga olish ishlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish, turli tadbir va o'quv kurslarini tashkil etish masalasi nazoratga olinsin.

V. Statistika agentligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili.

Statistika agentligi tizimida 2023-yilning IV choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati boshlig'i Melikmurotov Botir Nabijonovich atroflicha ma'lumot berib o'tdi.

Dastlab B.Melikmurotov, Agentlik va uning quyi tuzilmalarida Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi doirasida bajarilgan ishlar to'g'risida umumiy axborot berib o'tdi.

Xususan, Agentlik va hududiy quyi tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari har chorak davomida doimiy ravishda o'tkazilib kelinmoqda. 2023-yilning **IV choragi davomida** tizimda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va xodimlar o'rtasida ushbu illatga nisbatan murosasiz ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida Agentlikning markaziy apparati va hududiy statistika organlarida jami 63 ta targ'ibot va tashviqot tadbirlari o'tkazilganligini ta'kidlab o'tdi.

Siyosat va tartib-taomillar.

Agentlikning 2021-yil 29-dekabrdagi **127-son buyrug'i** bilan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va nizom) ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlanib, ushbu talablarga asosan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xavf-xatarlarni baholash.

Statistika agentligining 2023-yil 5-yanvardagi 2-son buyrug'iga asosan tasdiqlangan Ishchi guruh tomonidan statistika organlarining vazifa va funksiyalaridan 2 ta yuqori va 5 tasi esa o'rta xavf-xatarlar darajasi sifatida baholandi.

Agentlikning 2021-yil 29-dekabrdagi 127-son buyrug'i 3-ilovasi bilan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom" tasdiqlangan. Nizomga asoslanib, Hududiy statistika boshqarmalarida deklaratsiya Kadrlar boshqarmasi tomonidan xodimlarga tanishtirilib, imzolangan holda tegishli yig'ma jildga tikilgan. Markaziy apparat xodimlari o'rtasida jami 21 ta qarindoshligi bor holatlar aniqlandi, ulardan hech biri bevosita bo'ysunish holati kuzatilmaganligi sababli ularga tushuntirish ishlari berildi.

Manfaatlar to'qnashuvini markaziy apparat va hududiy statistika organlari xodimlari manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o'tdi. Hududiy statistika xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ishlar to'liq yakuniga yetmaganligi sababli, manfaatlar to'qnashuvi to'grisida ma'lumotlar keyingi chorak hisobotlarida aks ettirilishini ma'lum qilamiz.

Shuningdek 2023-yilning IV choragida hududiy statistika organlari kesimida manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillari, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan qilingan ishlar to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

Korrupsiyaga qarshi shartlarni Agentlik bilan tuziladigan barcha shartnomalarga kiritish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Agentlik va boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar o'rtasida tuziladigan shartnomalarga o'zgartirish kiritish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi. Masalan, xodimlarni ishga qabul qilishda mehnat shartnomalariga hamda korxonalar va tashkilotlar bilan tuziladigan konsalting shartnomalariga korrupsiyaga oid alohida band qo'shildi hamda amaliyotga tadbiriq etildi. Shu jumladan markaziy apparatda kontragentlar bilan

tuziladigan shartnomalar va ular to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalari shartnomalarga kiritildi.

Agentlik va hududiy statistika organlari kesimida tashkilot tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar IV choragida aniqlanmadi.

Ishga nomzodlarni tekshirish.

Agentlik tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar: markaziy apparat va hududiy statistika tizimiga ishga kirish uchun (<https://vacancy.argos.uz/>) orqali ochiq tanlov asosida qabul qilinib kelinmoqda hamda nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar bo'yicha barcha ishga qabul qilingan xodimlar nazoratdan o'tkazilgan.

Ta'lim va kommunikatsiya.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida o'quv-seminar yig'ilishlari (bevosita) o'tkazib kelinmoqda.

Statistika agentligi huzuridagi Kadrlarni malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida doimiy ravishda tizim xodimlari malaka va ko'nikmalari oshirilib kelinmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishga bag'ishlangan dars soatlari yo'lga qo'yilgan.

2023-yilning IV choragida 400 ga yaqin tizim xodimlari Korrupsiyaga qarshi kurashish va murosasiz munosabatda bo'lishga bag'ishlanga darslarda ishtirok etishdi. 2023-yil davomida 1700 dan ortiq tizim xodimlarini huquqiy savodxonligini oshirish bilan birga ularning korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish yuzasidan ijobiy ko'nikmalari shakllantirilmoqda. 2023-yilning IV choragi davomida 352 ta xodim malaka o'quv kurslarida qatnashishdi va ushbu xodimlar korrupsiyaga qarshi murosasiz ko'nikmalarini shakllantirish uchun 26 soatlik modulli o'quv mashg'ulotlarini o'tadilar.

2023-yil IV chorakda statistika tizimida 800 dan ortiq korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga qaratilgan tarqatma materiallar ya'ni fla'er, banner, plakat va qo'llanmalar tarqatildi.

Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar.

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risida xabarlar markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida aloqa kanallari orqali kelib tushmagan.

Agentlik va hududiy statistika organlari kesimida xodimlar tomonidan korrupsiya holatlari aniqlanganda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikga muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilib, ulardan belgilangan tartibda tilxatlar olingan.

Xodimlarni ishga qabul qilish jarayonlari to'liq elektronlashtirilgan "Argos.uz" platformasi mavjud bo'lib, tashkil etilgan maxsus ishchi komissiya nazorati ostida suhbat va test jarayonlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Agentlik va uning quyi tuzilmalarida bevosita faoliyat olib borayotgan xodimlarga nisbatan joriy yilning IV-choragi davomida korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Ishonch telefonlari domiy ravishda nazoratga olingan va bugungi kunga qadar korrupsiyaviy omillar to'g'risida birorta ham ma'lumotlar kelib tushmagan.

Monitoring va nazorat.

Hududiy statistika organlari kesimida tekshiruvlar o'tkazish, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatining 2023-yil uchun tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq, amalga oshiriladi.

2023-yilning IV choragi davomida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Jizzax viloyati va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmalarida o'rganishlar amalga oshirildi, o'rganishlar davrida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan ma'sul xodimlarga maqsadli topshiriqlar berildi.

Hududiy statistika organlari xodimlarining korrupsiyaga doir bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati boshlig'i Melikmurotov Botir Nabijonovich tomonidan 12 ta davra suhbatlari o'tkazilib, korrupsiyaviy omillarga duch kelgan taqdirda xodimlarga aynan qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishlari lozimligi to'g'risida tushuntirildi.

Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

Joriy yilning IV chorak yakuni bo'yicha Agentlik va hududiy statistika organlarida korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar aniqlanmadi. Shu bilan birga, xodimlarga korrupsiyaviy holatlar to'g'risidagi o'z vaqtida xabar berishlari uchun axborot manbalari (telegramm, instagramm), ishonch telefoniga murojaat qilishlari mumkinligi borasida keng imkoniyatlar yaratilgan.

Xulosa.

Tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Bulardan har chorak yakuni bo'yicha davlat xaridlari yuzasidan hisobot tayyorlanib, Agentlikning rasmiy saytiga <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/byudjet-to-g-risidagi-qonunchilik-hujjatlariga-muvofiq-ochiq-ma-lumotlar> joylashtirildi.

Xodimlarni ishga qabul qilish to'liq davlat fuqarolik xizmatlari (ARGOS) orqali qabul qilinib kelinmoqda. Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar Agentlikning rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/e-lonlar> e'lonlar bo'limiga hamda davlat fuqarolik xizmatlariga berildi.

Agentlikda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan va barcha hududiy organlarga yuborilgan. Hududiy statistika boshqarmalari tomonidan har chorak yakuni bo'yicha tizimda korrupsiyani oldini olish yuzasidan hisobotlar taqdim etilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan joylarga chiqqan holda hududlarning korrupsiyaga qarshi amalga oshirayotgan ishlarni o'rganish yo'lga qo'yilgan.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatining asosiy maqsadi tizimni korrupsiyaviy xavf-xatarlardan holi qilish hamda "Statistika tizimini korrupsiyasiz sohaga aylantirish" maqomini olishdan iborat.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishi kun tartibidagi 5-masala yuzasidan kengash a'zolari qaror qiladi:

1. Agentlikda 2023-yilning IV choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati boshlig'i Melikmurotov Botir Nabijonovichning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha tashkil etilayotgan tadbir va seminarlarning Axborot xizmati tomonidan OAVda keng yoritilishi ta'minlansin.

3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga keng joriy etilsin.

4. Tizimda korrupsiyaviy holatlar yuzasidan o'z vaqtida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish choralari ko'rilsin.

VI. Ijro intizomi bo'yicha IV chorak yakuni bo'yicha bajarilgan ishlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tizimida murojaatlar bilan ishlash, aholi bilan uchrashish, sayyor qabullarini o'tkazish, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, ularning yozma, og'zaki va elektron murojaatlarini qonunchilik talablari, asosida ko'rib chiqishni ta'minlash yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligiga 2023-yil IV choragida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning jami soni 210 tani tashkil etib, ularning 67 (31,9 %) nafar jismoniy shaxslardan, 143 (68,1 %) nafar yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

Shundan, 42 ta murojaat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 121 tasi Agentlikning elektron pochta orqali, 29 tasi og'zaki murojaatlar, 18 tasi to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan.

Kelib tushgan murojaatlarning mazmuni yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 122 tasi (58,1 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik

ko'rsatgichlarini taqdim etish yuzasidan, 39 tasi (18,5 %) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun statistik ma'lumot so'ralgan murojaatlar, 31 tasi (14,8 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan, 6 tasi (2,9 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish yuzasidan, 1 tasi (0,5 %) reyting va baholash masalasida, 8 tasi (3,8 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi, tashkilot nomining o'zgarishi to'g'risidagi arxiv ma'lumotlari so'ralgan, 3 tasi (1,4 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlar tashkil etilgan.

Statistika agentligiga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi Toshkent shahridan 129 ta murojaatlarni (61,4 %) tashkil etgan.

Shuningdek, Toshkent viloyatidan 15 ta (7,1 %), Samarqand viloyatidan 13 ta (6,2 %), Buxoro viloyatidan 7 ta (3,3 %), Qashqadaryo viloyatidan 7 ta (3,3 %), Surxondaryo viloyatidan 7 ta (3,3 %), Navoiy viloyatidan 6 ta (2,9 %), Jizzax viloyatidan 6 ta (2,9 %), Namangan viloyatidan 4 ta (1,9 %), Sirdaryo viloyatidan 4 ta (1,9 %), Farg'ona viloyatidan 3 ta (1,4 %), Andijon viloyatidan 2 ta (1,0 %), Xorazm viloyatidan 2 ta (1,0 %), va Qoraqalpog'iston Respublikasidan 5 ta (2,4 %) murojaatlar kelib tushgan.

Statistika agentligiga kelgan murojaatlar bo'yicha jami 210 ta murojaatlardan 178 ta murojaatlarga chora ko'rilgan, 18 ta murojaatlarga tushuntirish berilgan, 14 ta murojaatlar ko'rib chiqilmoqda.

Kelib tushgan murojaatlar Agentlik rahbariyati tomonidan nazoratga olinib, ularning barchasiga o'z muddatlarida tegishli mas'ul ijrochilar tomonidan yozma ravishda javob xati yuborilgan.